



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda Ha посты



2025-yil 20-fevral  
payshanba

№ 8 (4702)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqsa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

## Qo'shsahifada – Namangan viloyati



8-9



Har qanday davlat taraqqiyotida, har qanday soha rivojida yuksak salohiyatlari yoshlarning o'rni nihoyatda muhim. Hozirgi kunda Namangan viloyati ichki ishlar organlarida ham bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, izlanuvchan va intiluvchan ko'plab yosh xodimlar xizmat faoliyatini olib bormoqdaki, ular zo'r kuchg'ayrati, qat'iyati, yangicha sa'y-harakatlari bilan viloyatda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishga munosib hissa qo'shishyapti.

**Suratda:** (chapdan o'ngga) viloyat IIB xodimlari – katta leytenant Sardorbek Haydaraliyev, safdar Feruza Mirzahmatova hamda katta leytenant Alisher Tursunboyev.

## Hafta xabarlari

### YANGI DAVLAT STIPENDIYASI JORIY QILINADI

Harbiy oliygochlarning namunali tinglovchilari uchun «Oliy bosh qo'mondon» davlat stipendiyasi joriy etiladi. Bu haqda «Ko'ksaroy» qarorgohida davlatimiz rahbarining yoshlar bilan o'tkazgan muloqotida ma'lum qilindi.

Bundan tashqari, energetika, transport, urbanizatsiya, zamonaviy arxitektura, tibbiyot yo'naliishlarida «El-yurt umidi» jamg'armasi kvotalari ko'paytiladi. Dunyoning nufuzli «top-100» oliygochlarda ilmiy daraja olgan 35 yoshgacha bo'lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi. Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g'olib va sovrindor bo'lganlar uchun bir martalik pul mukofoti miqdori esa 5 karra oshiriladi.

### QAMOQDAN OZOD ETILGANLARGA 2,25 MLN SO'M

Joriy yil 1-maydan boshlab qamoqdan ozod etilgan shaxslarga 2,25 mln so'm miqdoridagi bir martalik nafaqa puli beriladi.

Joriy yil 30-yanvar kuni qabul qilingan «Ahollini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident farmoniga ko'ra, 2025-yil 1-maydan e'tiboran, ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari miqdoridagi bir martalik ushbu nafaqa puli «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali to'lanadi. Shuningdek, 1-apreldan «Yoshlar daftari» jamg'armalari orqali, 1-sentabrdan esa «Ayollar daftari» jamg'armalari orqali to'lanadigan bir martalik moddiy yordamlar o'rniiga kam ta'minlangan oilalar uchun nazarda tutilgan nafaqlar to'lanishi ham yo'liga qo'yiladi.

### ENDI MUHLAT TAYINLANMAYDIMI?

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasida bo'lib o'tgan majlisida «Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi muhokamasi bo'lib o'tdi.

Qayd etilishicha, yangi qonun loyihasida oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarning huquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish hamda bunday holatlar takrorlanishining oldini olishga qaratilgan normalar nazarda tutilgan. Jumladan, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda sud oilaviy (maishiy) zo'ravonlik jinoyatidan jabrlangan shaxsning talabiga ko'ra yarashish uchun muhlat tayinlamasligi belgilanmoqda.

Nikohdan ajratish masalasi o'z vaqtida hal qilinmasligi ayrim hollarda ayollarning o'z joniga qasd qilishi, bevaqt o'limi kabi ayanchli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu normaning amaliyotga joriy etilishi bunday holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

## SEMINAR

## KASBIY BILIMLAR OSHIRILDI

So'nggi vaqtarda mamlakatimizda barqarorlikni ta'minlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish, kuch tuzilmalarining o'zaro hamkorligini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shu maqsadda ichki ishlar organlari harbiy safarbarlik bo'linmalari boshliqlari bilan o'quv seminar o'tkazildi. Unda Ichki ishlar vaziri o'rribosari, general-major Bahodir Mirzarahimov ishtirot etdi.

Tadbirda jangovar shaylik va safarbarlik sohasiga oid muammo-lar tahlil qilinib, amaliy yechimlar taklif etildi. Shuningdek, ichki ishlar organlarining jangovar, safarbarlik, tezkor rejalashtirish va fuqaro muhofazasi borasidagi 2025-yil-dagi eng ustuvor vazifalari belgilab olindi.

Seminar davomida xodimlarining kasb mahorati va bilimlarini oshirish maqsadida Ichki ishlar, Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardianing

malakali mutaxassislari tomonidan o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Qatnashchilar harbiy safarbarlik bilan bog'liq o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Seminar yakunida ishtirotchilar uchun madaniy tadbirdar ham tashkil etildi. Ular IV Akademiyasida, «G'alaba bog'i» yodgorlik majmuasi va undagi «Shon-sharaf» davlat muzeyida bo'lishdi.

**Nosirjon LATIPOV,**  
podpolkovnik.



## FIDYOI XODIMLAR

Bulung'ur tumani «Navbahor» mahallasi profilaktika katta inspektori, mayor G'ayrat Urakov, o'ttiz yillardiki, ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelmoqda. Uning xizmat hududidagi 945 ta oilada 3749 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahalla ayni paytda «yashil» toifada. Bu, albatta, mahalla yettiligining ya'ni, profilaktika inspektoridan to mahalla raisi Duvon Sulaymonovgacha bar-chaning hamjihatlikdagi mehnati sharofatidan.

– Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning zamarida xalqni rozi qilishdek maqsad bor, – deydi mayor G'ayrat Urakov. – Aholi orasiga kirib, odamlarning so'zlariga quloq tutgan davlat xizmatchisi bu vazifani uddalay oladi. Biz ham ko'pincha xizmat hududidagi muammolarni mahalla raisi, faollar bilan birgalikda atroflicha o'rganib, keyin fikrlashib yechim topamiz. Chunki muammo shu yerdami, unga yetaklovchi omillar ham tabiiyki shu mahallaning o'zida bo'ladi. Mahalla

ahli, odamlar buni yaxshi biladi. Shu ma'noda, profilaktika inspektorining eng yaqin yordamchisi xizmat hudu-didagi aholidir.

Uzoq yillik faoliyati davomida yetarlicha tajriba to'plagan qahramonimiz o'ziga biriktirilgan hudud aholisi bilan yaxshi tillashadi. Shu bois bo'lsa kerak, mahalladagi kat-

davomchisi bo'ldi. O'g'limning orqasidan faqat rahmat eshitdim. Bundan ikki yil avval viloyat hokimi qo'lidan «Shuhrat» medalini olganda, quvon-chim ichimga sig'madi.

Qahramonimiz mehr qo'ygan kasbining o'ziga xos jihatlarini ilk bora otasidan, keyinchalik ustozlari – iste'fodagi podpolkovnik Mirza-

## YUTUQLAR KALITI

ta-yu kichik uni o'ziga yaqin tutib, «O'zimizning G'ayrat aka», deyishadi. Aytgancha, lavhamiz qahramoni ota kasbini tanlab, uning duosini olib, elning mehrini qozonganlardan.

– Qo'riqlash xizmatida starshina bo'lib o'ttiz yilga yaqin ishlaganman, – deydi Xalil ota Urakov. – Shu kas-bim orqasidan ayolim bilan to'qqiz farzandni tarbiyaladik, elga qo'shdik. Besh o'g'lim orasidan G'ayratjon bolaligidan mening kasbimga mehr qo'ydi. Azbaroyi qiziqqanidan ish-xonamga ergashib borgan paytlari ko'p bo'lgan. Keyinchalik bo'yib o'ym bilan tenglashib, kasbimning

qayum Yaxshiboyev, podpolkovnik Bahodir Bahromovdan o'rgangan. Hozirda o'zi ham yosh xodimlarga ustozlik qilmoqda. U zimmasidagi xizmat vazifalarini to'kis bajarishga harakat qilayotgan kapitanlar Temur Hayitov, Abdusalihi Qudratov singari jonkuyar shogirdlari bilan faxlanadi.

Yutuqlar kaliti fidoyilikda deb bil-gan mayor G'ayrat Urakov oilasida ayoli pedagog Zulkumor Urakova bilan to'rt nafar farzandni tarbiya qilmoqda. To'ng'ichi qizi Nilufarxon, o'rtaqchasi Irodaxon bo'lg'usi pedagog, o'g'li Temurjon Toshkent davlat transport universiteti talabasi.

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



## XAYRLI TASHABBUS

Bugungi kunda atrof-muhitni asrash jamiyat hayotidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu masala nafaqat mamlakatimiz, balki butun insoniyatni o'ylantirayotgan global muammoga aylan-gan. Nukus shahar IIOFMB tomonidan «Tele oray» makon fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan tadbir ayni shu masalaga bag'ishlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga Ekologik parti-yadan saylangan deputat Aysanem Begimova qatnashgan tadbirda ona tabiatni asrash, ayniqsa, so'nggi yillarda ekologik muvozanatni saqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida batafsil so'z yuritildi. Bundan tashqari, ishtirotchilarga hududda xotin-qizlar o'rtasida hu-quqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish, hozirgi kunda keng tarqalayotgan kiberjinoyatlar, firibgarliklarning qurbanli bo'lib qolmaslik yuzasidan tushunchalar berildi.

– Fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali usulardan biri xotin-qizlarda ona tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatni paydo

qilishdir, – deydi deputat A.Begimova. – Shu orqali ko'pchilikning dunyoqarashini o'zgartira olamiz. Muhimi, bu kelgusida bir qancha muammolarga yechim bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Uchrashuvda, shuningdek, hudud aholisi uchun dolzarb bo'lgan 13 ta ko'chadagi gaz quvurlarini yangilash, ayrim ichki yo'llarni ta'mirlash, kichik bozorchalarishini yo'lga qo'yish haqida qilingan murojaatlarni ijobji hal etish bo'yicha tegishli tashkilotlarga deputat so'rovnomalari jo'natildi. Shu kunning o'zida tadbir tashkilotchilari hududdagi bir nechta xonadonlarga borib, aholi yashash sharoitini o'rganishdi va murojaatlar tinglandi.

**Ayjamal NAMENOVA,**  
podpolkovnik.



Niginaxon esa xorijiy til yo'nalishida oliy dargohga o'qishga kirish niyati-da tayyorlanmoqda.

Otasiga munosib izdosh, namu-nali xizmati bilan yoshlarga o'rnak xodim, baxtiyor oila boshlig'i, hayot yo'lida hamisha ismiga xos g'ayrat bilan odimlayotgan lavhamiz qahramoniga havas qilsa arziydi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Samarqand viloyati.

 PROFILAKTIKA XIZMATI

## «QIZIL» DAN «YASHIL» TOMON

– Xodimlarimiz aholining yaxshi-yomon kunlariida doimo yonida turgani hamda mahalla faollari bilan birqalikda olib borayotgan sa'y-harakatlari yaxshi samara bermoqda. Misol uchun aytdigan bo'lsak, o'tgan yili o'zaro hamkorlik natijasida elliqka yaqin jinoyatlarning oldi olindi. Profilaktika inspektorlari tomonidan 9 ta qo'shmachilik, 1 ta giyohvandlik moddalarini o'tkazish, 2 ta ma'muriy nazorat qoidasini buzish holatlari aniqlandi va 3 nafar qidiruvdagi shaxs ushlandi, – deydi Peshku tumani IIB JXX HPB boshlig'i, podpolkovnik Azamat Qayimov.

Malakali profilaktika katta inspektorlari yosh xodimlarga kasb mahoratini o'rgatib kelishmoqda. Shuningdek, o'tgan yili «qizil» toifaga kiritilgan to'rtta mahallaga tajribali profilaktika inspektorlari tayinlandi.

– Xizmatni boshlaganimda, avvalo, aholini uchta toifaga ajratib, profilaktik ishlarini yo'lga qo'ydim. «Qizil» toifaga profilaktik hisobda turuvchilarini, «sariq» toifaga esa jinoyat qilishga moyilroq shaxslarni kiritdim. Hozir asosan «qizil» va «sariq» toifadagi fuqarolar bilan targ'ibot-tashvигot ishlarini olib boryapman. Bunda mahalla faollari menga ko'makdosh bo'lyapti. Ularni ish bilan ta'minlash choralarini ko'ryapmiz, – deydi «Chig'irchi» MFY profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Amin Sodiqov.

Katta leytenant Islom Ne'matov tajribali ustozlardan saboq olgan profilaktika inspektorlari dan biri.



– Islom ikki yildirki, biz bilan tun-u kun birga, – deydi «Yangibozor» MFY raisi Chamanoy Vohidova. – Hududimiz tuman markazida bo'lganligi sababli, 47 ta tashkilot va korxona joylashgan. Tabiiyki, rahbar-u ishchi-xodimlar ham har joydan kelib ishlashadi. Mahallamizda

2024-yili va joriy yilning o'tgan davrida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi, huquqbazarlik holatlari esa kamaydi. Buning natijasida o'tgan yili «yashil» toifadagi mahallalar qatoriga q'shildik.

Darhaqiqat, mahallada profilaktika inspektorining raisu faollar

bilan hamjihatlikdagi sa'y-harakatlari tahsinga loyiq.

– Mahallada ilgari sodir etilgan jinoyatlarga asosan oila – turmush doirasidagi qo'yidi-chiqdilar sabab bo'lgan, – deydi katta leytenant Islom Ne'matov biz bilan suhbatda. – Shu bois ham notinch oilalar, o'zaro kelisholmaydigan qo'shnilar bilan jiddiy ish olib bordik. Janjal-u mashmashalarni bartaraf etishga harakat qildik. Hozirda 8 ta notinch oila va 22 nafar profilaktik hisobda turuvchi shaxs bor. Ular bilan muntazam ravishda profilaktik targ'ibotlar o'tkazyapmiz.

Katta leytenant I.Ne'matov mahalla hududiga videokuzatuv kameralari o'rnatilishiga ham alohida e'tibor qaratdi. Hozirda 206 ta yuzni tanib olish videokuzatuv kamerasi ishlab turibdi. Videokuzatuv kameralari asosan istirohat bog'iga, ovqatlanish va savdo shoxobchalariga, korxonatashkilotlarning ko'cha tomonida o'rnatildi. Yana 12 ta ko'p qavatli uy oldida kuzatuv kameralari qo'yilishi rejalashtirilgan.

Ha, bugungi kunda «Yangibozor» mahallasida bo'lgan kishi hududdagi osoyishtalikni ko'rib, dili yayraydi. Shu bois bu yerda istiqomat qiluvchi aholi katta leytenant Islom Ne'matov xizmatidan mammun.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Buxoro viloyati.*  
**Suratda:** podpolkovnik Amin Sodiqov va katta leytenant Islom Ne'matov.

 EKSPERT-KRIMINALISTIKA


*Suratda:* leytenant Gulyor Komilova ustozasi, podpolkovnik Zafar Ibragimov bilan xizmat paytida.

## TUTQICH TUTIB BERDI

**Xiva tumani IIB Eksper-kriminalistika guruhi xodimlari joriy yilning o'tgan davrida 35 marotaba tergov harakatlarda, 47 marotaba tezkor-qiduv tadbirlarida ishtiroy etishdi. 13 ta eksper-tadqiqot ishi amalga oshirilib, 2 ta jinoyat tezkorlikda ochildi.**

– Jinoyatga aloqador ashvoyiv dalillarni izlab topish eksper zimmasidagi muhim vazifadir, – deydi katta eksper, leytenant Gulyor Komilova. – Hodisa joyini sinchkovlik bilan kuzatsangiz, o'rgansangiz, albatta, jinoyat izlarini topasiz va o'sha dalillar gumonlanuvchini aniqlash hamda qilmishini fosh etishda muhim jihat sanaladi.

Joriy yilning 1 yanvar kuni tunda tumandagi Otajon To'ra mahallasida joylashgan fuqaro Abdulla Bobojonovga tegishli oziq-ovqat do'konida o'g'rilik sodir etildi. Kimdir do'kon eshigini buzib kirib, u yerdan 700 AQSH dollari hamda 4300000 so'm pulni o'g'irlab ketgan. Hodisa joyini ko'zdan kechirish davomida eshik tutqichi va boshqa joylarda 13 ta qo'l-baromoq izi borligi aniqlanib, viloyat IIB Eksper-kriminalistika markaziga yuborildi. O'rganishlar natijasida bu izlar Buxoro viloyatida yashovchi A.S.ga tegishli ekani aniqlandi. Shu tariqa, Xiva tumanida tilanchilik bilan shug'ullanib yurgan bu kimsaning qing'ir ishi fosh etildi.

**Xudoybergan JABBOROV,**  
o'z muxbirimiz.

*Xorazm viloyati.*



Женщина и общество

## «НАША НЕУТОМИМАЯ ГУЗАЛИЯ»

**Сложная нравственно-психологическая обстановка в семье Нилуфар (имя изменено), жительницы махалли Узбек Букинского района: супруг пристрастился к алкоголю, проявляет агрессию, всячески оскорбляет. Мать троих детей в подавленном состоянии...**

– По данному факту приняты неотложные меры. Нилуфар выдан охранный ордер. С детьми она помещена в Центр реабилитации и адаптации, расположенный в Ангрене. Ее муж официально предупрежден о правовых последствиях антисоциального поведения, – говорит старший инспектор по вопросам женщин ОПП ОВД Букинского района капитан Гузалия Калимуллина.

Деятельность капитана Г. Калимуллиной направлена прежде всего на защиту прав и законных интересов женщин, ограждение их от любых форм притеснения и насилия.

– В минувшем году оформили более 360 охранных ордеров, за истекший период текущего года – свыше 80, – продолжает наша собеседница. – Отдельное направление работы – раннее предупреждение совершения со стороны женщин правонарушений.



На снимке: капитан Гузалия Калимуллина с жительницей района Барно Алимовой.

В центре внимания подучетные группы probation, ранее судимые, а также несовершеннолетние девушки, состоящие на учете ОВД и образовательных учреждений. Цель – оградить их от неверного шага.

Инспектор тесно взаимодействует с хокимиятом, активом махаллей.

– Совместная деятельность результативна, – подчеркивает Гузалия. – Контингент немалый, это жительницы 44 махаллей. Всегда могу положить-

ся на поддержку заместителя хокима района Зиёды Манноловой, женской активистки Лайло Ташпулатовой из махалли Гулистон, инспекторов профилактики лейтенанта Бобира Исломова, капитана Охуна Сайдова.

В графике трудовых будней инспектора мероприятия по широкому охвату населения профилактической работой – встречи, беседы в махаллях, образовательных учреждениях, общественные обсуждения противоправных деяний. «Наша неутомимая Гузалия» – так отзываются о ней коллеги.

В органах внутренних дел Г. Калимуллина с 2008 года, а с 2019 года на нынешней должности.

– В моем профессиональном становлении велика роль наставников – капитана Хилолы Сотиволдиевой, ныне подполковников в отставке Шавката Ибрагимова, Барно Кариевой и других. Вспоминаю их с благодарностью, – подчеркивает Г. Калимуллина.

На службе героя очерка – успешная сотрудница. Дома – супруга, любимая мама. С мужем Захидом они растят двух сыновей – Бехруза и Шохруза, дочь Солихи, воспитывая их достойными людьми.

**Радик ТУМПАРОВ,**  
соб. корр.  
Ташкентская область.

### Сурхандарьинская область



Для группы студентов Термезского университета экономики и сервиса организовано посещение Управления по обеспечению безопасного туризма областного УВД.

Молодежь ознакомилась с созданными здесь условиями, современными техническими средствами, повышающими оперативность и эффективность работы. Студенты побывали в ситу-

ационном центре, получили информацию о его деятельности и возможностях.

Безопасность – ключевой фактор, определяющий привлекательность туристического направления. По-

сещение управления будет способствовать осознанию студентами важности этого аспекта в их будущей профессиональной деятельности.

Соб. корр.

### ЗНАЕТЕ ЛИ ВЫ, ЧТО...

На основе организационно-штатной структуры в махаллях с тяжелой криминогенной обстановкой некоторых регионов будет организована деятельность махаллинских пунктов правопорядка и внедрена система оперативного реагирования по обеспечению общественной безопасности и предупреждению преступности, предусматривающая формирование микрочастков, объединяющих до пяти махаллей.

При этом в организационно-штатную структуру махаллинского пункта правопорядка, как правило, на постоянной основе включаются:

- ▼ инспектора профилактики (старший, младший), обслуживающие микроучастки;
- ▼ инспектора по вопросам женщин, probation, безопасности дорожного движения и патрульно-постовой службы, а также сотрудник оперативно-розыскной службы;
- ▼ наряды подразделений охраны Национальной гвардии.

(По материалам Telegram-канала «Правовая информация».)



# ЮРАГИ ТОЗА ОДАМ ҲАМИША БАРДАМ

Бирлашган таҳририятимизнинг Фарғона водийси бўйича мухбири вазифасида ишлаган, ҳозирда 74 ёшни қарши олаётган истеъфодаги подполковник Муҳаммадрасул Кимсанбоевни Фарғона томонларда танимаган, билмаган одамнинг ўзи йўқ.

Юзидан табассум аримайдиган, кўзлари кулиб турадиган бу самимий инсонни таниган-билгандар «Муҳаммадрасул aka серқирра инсон-да» деб таъриф беришади. Унинг жонсараклигига ҳавас қилишади. Зеро, узоқ йиллар ички ишлар органларида самарали хизмат қилган соҳа фидойиси пенсияга чиққач, катта-катта хайрли ишларга қўл урди. Масалан, ўтган йиллар давомида Жадсон Филипснинг «Бола ўғриларининг найранглари», «Миш-мишлар шахри», Дэшил Хэмметтинг «Мальта лочини», Микки Спиллейннинг «Менинг қотилим» сингари жаҳон адабиётининг ўттизга яқин машҳур асарларини, жаҳон халқлари эртакларини ўзбекчага ўғирди ва нашр эттириди. Тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиб, ўзи истиқомат қиласидиган Ёзёвон туманида боғ яратди.

Яқинда унинг ижодида яна бир янгилик рўй берди. М.Кимсанбоев таржима қилган Дэшил Хэмметтинг «Мальта лочини» ва Раф Валлоненинг «Алвидо, полициячи» номли асарлари Ўзбекистон телерадиокомпанияси сухандонлари томонидан аудиокитобга айлантирилиб, интернет тармоғига жойланди. Ҳозир бу китобларнинг брайл алифбосидаги нусхалари нашрга тайёрланмоқда.

Истеъфодаги подполковник Муҳаммадрасул Кимсанбоев оддий дехқон оиласининг фарзанди. 1951 йилнинг 24 февралида Фарғона вилоятининг Ёзёвон туманидаги Қорасоқол қишлоғида туғилган, шу қишлоқдаги ўрта мактабда ўқиган. Кейинчалик, 1967–1972 йиллари Украина нинг Луганск шаҳрида Т.Шевченко номидаги педагогика институтида таҳсил олди. 1987 йили Москва шаҳридаги собиқ Иттифоқ Ички ишлар вазирлиги Академиясини тамомлади.

Қаҳрамонимиз дастлаб қишлоқ мактабида ўқитувчилик қиласиди. Кейинчалик ички ишлар органлари сафига ишга ўтади. Хусусан, 1982–1985 йиллари Ёзёвон тумани ИИБ бошлиғи ўринбосари, 1987–1990 йиллари Олтиариқ тумани ИИБ бошлиғи ўринбосари, 1990–1995 йиллари Фарғона вилояти Ички ишлар бошқармасида масъул лавозимларда фаолият кўрсатади.

1998 йил ноябрь ойидан Ички ишлар вазирлиги Бирлашган таҳририятининг Фарғона водийси бўйича мухбири бўлиб ишга тайинланган қаҳрамонимиз етти йил давомида Фарғона, Андикон, Намангандар тарбиятлари ички ишлар органлари ходимлари фаолияти ва соҳа фидойилари ҳақида мақолалар, очерклар, лавҳа ва репортажлар ёзди. Ўқишли мақола-



лари ва ижодий ишлари билан газета ва журнал муштариликларининг меҳрини қозонди. 2005 йилда эса эҳтиром билан пенсияга кузатилди.

– Бирлашган таҳририyatda ишлаш менга катта ҳузур бағишилаган, – дейди у. – Забардаст ижодкорлар, самимий инсонлар билан бирга меҳнат қилдим. Жумладан, Зокиржон Отаев, Александр Воргудяев каби устозлар сабогини олдим.

Муҳаммадрасул aka ҳозир ҳам тиним билмайди. Ёзёвон тумани Нуронийлар кенгашининг фаол аъзоси сифатида ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишига камарбаста бўлиб келяпти. Туман Ички ишлар бўлими томонидан ўтказилаётган тадбирларда фаол қатнашиб, ёшларга касб сирларини ўргатиб келмоқда.

Серқирра ижодкор, таржимон ва тадбиркор, ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник Муҳаммадрасул Кимсанбоевга кўпчилик шу савонни беради: «Етмишдан ошдингиз-у, ҳали ҳам ёш йигитдайсиз, бунинг сири нимада?». «Юраги тоза, меҳнаткаш одам қаримайди-да», – дейди устоз самимий кулиб. – Ҳали яна қанча-қанча асарларни таржима қилиш ниятим бор. Яратган кучкуват берса, шогирдларни дуо қилиб, яхши-яхши таржима асарларни китобхонларга совға қиласиди.

Абдувосит СИДИКОВ,  
ӯз мухбirimiz.

Фарғона вилояти.

Yoshlar – kelajak bunyodkori

## QIMIRLAGAN QIR OSHAR

Ichki ishlar organlarida serg'ayrat va izlanuvchan yosh xodimlar bisyor. Ularдан бирини Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi «Baytish» mahallasiga xizmat ko'rsatuvchi profilaktika inspektori, katta leytenant Fazliddin Sultonqulovdir.

Lavhamiz qahramoni ilk xizmat faoliyatini «Yangiyo'l» mahallasida boshladi. Ustozi, hozirda iste'fodagi подполковник Davron O'sarovning nasihatlariga amal qilgan holda ish olib bordi.

Hozirda u «Baytish» mahallasida profilaktika inspektori lavozimida mahalla faollari bilan tizimli ishlarni amalga oshirib kelyapti. Jumladan, o'tgan vaqt mobaynida u ichkilikbozlikka ruju qo'ygan va jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan fuqarolar bilan profilaktik suhabatlar olib bordi. Foydali mehnat bilan band bo'limgan yigirmaga yaqin fuqarolarga ishga kirishiga amaliy yordam ko'r-satdi. Sohaviy xizmatlar hamkorligida o'tkazilgan tungi reydlarda esa ko'plab qonunbuzarliklarga chek qo'yildi.

Qimirlagan qir oshar, deydilar. Yosh profilaktika inspektori, katta leytenant Fazliddin Sultonqulovning sa'y-harakatlari ko'p o'tmay o'z samarasini berib, «qizil» toifada bo'lgan hudud jinoyatdan xoli mahallalar qatoridan o'r'in oldi. Endilikda 3 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qilayotgan mahalla tinch va xotirjam maskanga aylangan.

– So'nggi ikki yil davomida «Baytish» mahallasida jonbozlik ko'rsatib, odamlarning mehrini qozonib kelayotgan Fazliddin doim oldinga intilishi tufayli qator yutuqlarga erishmoqda, – deydi tuman IIB boshlig'ining o'rinosari, подполковник Shukrullo Shunqorov. – Us-tozlari va tajribali hamkasblarining aytganlarini qilib, kam bo'lmayapti.

Kitob mutolaasi va sport bilan shug'ullanish Fazliddinning eng sevimli mashg'ulotlaridan. Xizmatdan so'ng oilasi bag'riga talpinadigan osoyishtalik posboni bo'sh vaqtini ular bilan o'tkazishni xush ko'radi. O'z qo'li bilan ikki farzandiga turli taomlar tayyorlab, ularning xursandchiligidagi sherik bo'lismi hayotining eng shirin damlari deb biladi.

Mixli SAFAROV,  
о'з мухбirimiz.

Toshkent viloyati.



## ■ Республика Каракалпакстан

# ЗОНА ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Кунградский район Каракалпакстана – приграничный. В его составе находится поселок Кырык-кызы, расположенный в 70 километрах от райцентра. Благодаря усилиям инспектора профилактики капитана Бахытжана Ешмуратова этот населенный пункт уже два года сохраняет статус «зеленой» зоны.

Сегодня в поселке проживает более 4 500 человек. Здесь расположены важные экономические объекты, среди которых совместное предприятие «UzKorgaz Chemical», управление магистральных газопроводов «Акшолак» и крупное соляное месторождение «Барсакельмес». Многие местные жители работают на этих предприятиях.

– Я родился и вырос в Кунградском районе, поэтому хорошо знаком с образом жизни местных жителей и их проблемами, – рассказывает Бахытжан Ешмуратов. – Мы наладили тесное сотрудничество с председателем схода граждан Саей Байбосиновой, работу ведем совместно.

Взаимодействуя с «махаллинской семеркой», капитан Ешмуратов в прошлом году



подготовил 112 заключений по вопросам, волнующим граждан. Так, гражданину М. Усманову, выразившему желание начать бизнес по оказанию компьютерных услуг, комиссия помогла подобрать подходящее помещение и оформить льготный кредит. Теперь он развивает свое дело.

Гражданину Е. Танатарову оказана помощь в получении банковского кредита на сумму 63 миллиона сумов для открытия магазина, что обеспечило работой двух человек. В январе текущего года капитан предоставил семь заключений, шесть из которых уже успешно решены.


Важное направление работы – обеспечение гендерного равенства, юридическая помощь женщинам. В прошлом году в поселке выдано 17 охранных ордеров для предотвращения случаев притеснения.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**  
соб. корр.

## ■ Кибербезопасность

### ■ Ташкентская область

Сотрудниками отдела кибербезопасности ГУВД области и ОВД города Ахангарана пресечена противоправная деятельность 7 лиц, создавших в Telegram более 200 групп под названием «Акция Алишера Усманова» в целях выманивания у граждан денег. В числе злоумышленников 25-летний житель Ахангарана Ш. Б., а также 6 человек в возрасте от 18 до 25 лет, проживающих в Ферганской области. Пользователям рассылались ложные сообщения о выигрыше, для получения которого предлагалось внести комиссию – перевести определенную сумму на карту, оформленную на третье лицо.



Установлено, что внутри группы были четко распределены обязанности: одни занимались изготовлением фальшивых чеков, другие отвечали за рекламу, трети – за взаимодействие с потенциальными жертвами.

В ходе мероприятия в качестве вещественных доказательств изъяты 4 компьютера, 11 телефонов, устройства Wi-Fi, банковские карты.

По данному факту возбуждено уголовное дело пункту «г» части 3 статьи 168 (мошенничество, совершенное с использованием информационной системы, в том числе информационных технологий) УК. Ведется следствие.

Уважаемые соотечественники! Чтобы не угодить в сети мошенников, орудующих в интернете, соблюдайте следующие правила:

- не реагируйте на сомнительные предложения;
- убеждайтесь в надежности источника информации;
- не переходите по сомнительным ссылкам;
- не сообщайте незнакомцам персональные данные, пароли от учетной записи, коды и т.д.;
- не принимайте поспешных решений.

**Радик ТУМПАРОВ,**  
соб. корр.

### ■ Самаркандская область

В последнее время в социальных сетях активно обсуждается новый виток телефонного мошенничества, жертвами которого становятся граждане. Злоумышленники используют подмену номеров, звонят с разных комбинаций, в том числе с номеров, начинающихся на «78», что создает иллюзию звонка от государственных органов или официальных учреждений. В результате таких действий граждане теряют личные данные, а с их банковских счетов исчезают денежные средства.



Ежедневно правоохранительные органы фиксируют десятки случаев телефонного мошенничества. Преступники, используя психологические приемы, понуждают граждан сообщать конфиденциальные данные или выполнять определенные действия, которые приводят к потере средств. Одним из наиболее распространенных методов является оформление онлайн-кредитов на имя жертвы. Однако благодаря мерам, предпринятым МВД и Центральным банком, масштабы этой схемы были значительно сокращены. Введенные требования к биометрической иден-

тификации позволили снизить риск незаконного оформления займов.

Новая угроза связана с распространением вредоносных APK-файлов через мессенджер Telegram. Преступники маскируют вирусные программы под полезные приложения и, манипулируя доверием пользователей, убеждают их установить такие файлы на свои устройства. Вредоносные программы позволяют мошенникам получать доступ к личным данным, а в некоторых случаях – даже определить местоположение жертвы.

Чтобы защитить себя от подобных угроз, специалисты рекомендуют соблюдать меры предосторожности: не загружать файлы из сомнительных источников, не открывать сообщения от незнакомых отправителей, регулярно обновлять программное обеспечение и использовать антивирусные программы. Внимательность и бдительность помогут избежать финансовых потерь и сохранить конфиденциальность личных данных.

**Азамат ЮЛДАШЕВ,**  
майор.

## QO'SHQANOTLAR

## ISHONCH BILAN MUSTAHKAM RISHTA

Hamkasblarning oila qurishi odatda ko'pchilikka ma'qul kelmaydi. Biroq ichki ishlar organlarida aynan hamkasb bo'la turib, baxtli hayot kechirayotganlar talaygina. Saidqulovlar oilasini bunga yorqin misol qilib keltirish mumkin.

Oilaboshi mayor Aziz Saidqulov Termiz tumani IIB HPBda profilaktika katta inspektori. Sharof Rashidov mahallasi aholisi xavfsizligini ta'minlash, hududda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish uchun mas'ul xodim o'z vazifasini sidqidildan ado etib kelmoqda. Qariyb 3 yildan beri shu mahallada xizmat vazifasini olib borayotgan Aziz Saidqulovni ko'pchilik hurmat qiladi. Chunki nizoli oilalar bormi, ro'yxatda turadigan shaxslarmi, kim-gaki ko'mak zarus bo'lsa, yordamga oshiqadi.

Turmush o'rtog'i, mayor Dilfuza Chorshanbiyeva esa viloyat IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasida muhim topshiriqlar bo'yicha inspektor vazifasida xizmat qilmoqda.

– Ilk tanishuvimiz ichki ishlar organiga hujjat topshirish jarayonida bo'lgan, – deb eslaydi Dilfuza opa. – 2012-yildan turmush o'rtog'im, men esa biroz o'tib, 2013-yildan xizmatni boshlaganmiz. Bu orada bir-birimizni sinab, 2014-yilda turmush qurganmiz. Shu paytgacha turli vaziyatlar

bo'ldi: goh mening ishxonamda ushlanishlar, xizmat safarlari, goh turmush o'rtog'im ish yuzasidan uyga kech kelgan vaqtlar... Ammo har qanday vaziyatda ham bir-birimizni tushunib, qo'llab-quvvatlashga harakat qilamiz.

Ha, xizmatdoshlarning ahilligi ularning bir-biriga bo'lgan ishonchi tufayli. Bugun ular 3 nafer farzandni voyaga yetkazishmoqda. Farzandlarning o'qishi, sport to'garaklariga qatnashishi, ro'zg'or yumushlari Dilfuzaning yelkasida. Ammo u bu yumushlarni erinmasdan bajaradi.

Darvoqe, Dilfuza Chorshanbiyeva nafaqat oilada, balki ishda ham faol xodimalardan bo'lib, turli tanlovlardan g'olib hamdir. O'tgan yili o'tkazilgan «Fidoyi ayol xodima» ko'rnik-tanloving viloyat bosqichi g'olib. Bu yil esa «Zakovat» intellektual o'yinlarida eng zukko xodima sifatida e'tirof etilib, uning jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Turmush o'rtog'imning yutug'-idan men ham doim quvonaman, – deydi mayor Aziz Saidqulov. – Kamtarligi, kirishimliligi va xizmatdagini vazifasini ham, uydagi yumushlarni



ham doim reja bilan bajarishi, tartibga amal qilishini hurmat qilaman. O'zaro ishonch bizni mehr rishtalari bilan bog'lab turadi.

Ham xizmatda, ham hayotda birga, hammaslak bo'lib yashashning o'ziga xos sir-sinoatlari bor. Zero, mashaqqat chekmagan baxt-

ga erishmaydi, o'z oilasida o'zaro mehr-muhabbatni shakllantira olmagan boshqalarga ham namuna bo'la olmaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

## СУЛОЛА

## ОРЗУЛАРИ БИР ДУНЁ

Ҳаётда кўпни кўрган, йиллар синовида тобланиб, бой амалий тажриба тўплаган фахрийларнинг ўгит ва маслаҳатлари ёшлар учун чинакам ибрат мактаби хисобланади. Шу нуқтаи назардан, ички ишлар органларида ҳам кексалар тажрибасини ёшлар шижаоти билан уйғунлаштиришга, шу асосда ходимларда Ватанга муҳаббат, касбга садоқат туйғуларини янада мустаҳкамлашга доир қатор ташабbuslar илгари сурilmokda.

Истеъфодаги подполковник Содикжон Нишонов ички ишлар органларидағи узоқ йиллик фаолияти давомида қатор соҳавий хизматларда ишлаб, ўтган йили ҳурмат-эҳтиром билан пенсияга кузатилди. Ҳозирда у Андикон вилояти ИИБ Фахрийлар кенгашининг фаол аъзоси сифатида юқоридаги эзгу мақсадларни кенг амалга оширишга ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда.

– Марҳум отам – капитан Набижон Нишонов ички ишлар органлари ходими бўлган. У кишидаги масъулият, билим ва бошқа кўплаб касбий фазилатлар мени ўзига тортган. Шу боис унинг ишини давом эттиришга қарор қилганман, – дейди лавҳамиз қаҳрамони.



Содикжон ака турли йилларда Андикон шаҳар ИИБ Ҳукуқбузарликларнинг олдини олиш бўлими бошлиги, Асака шаҳар ИИБ жиноят-қидирив бўлинмаси бошлиги, вилоят ИИБ Ҳукуқбузарликлар профилактикаси бошқармаси бўлим бошлиги каби лавозимларда на-мунали фаолияти билан ўзини кўрсата олган.

Бугунги кунда унинг шарафли касбини икки ўғли – лейтенант Искандар Набиев пробация йўналишида, сафдор Самандар Набиев эса ЙПХ инспектори лавозимида давом эттироқда. Тұрмуш ўртоғи Мұхаббатхон опа ва икки қизи тибиёт ходималари.

Истеъфодаги подполковник Содикжон Нишонов дилига бир дунё орзуларни, эзгу мақсадларни туғиб қўйганини яширмади:

– Умр, вакт жуда тез ўтаркан. Бирпаста пенсияга ҳам чиқдик. Раҳбарларимизга раҳмат, катта эҳтиром билан кузатишди. Лекин хизматда ҳар доим сабитқадамман, ҳозирда ёш авлодни миллый анъана ва қадриятларимизга чукур ҳурмат руҳида камол топтириш ўйлида ишимни давом эттирияпман.

Ҳа, унинг мақсадлари эзгу, истаги хайрли. Ушбу шарафли йўлда қаҳрамонимизга мустаҳкам соғлик ва куч-куvvват тилааб қоламиз.

Аброр ПОЁНОВ,  
ўз мухбиримиз.

Андикон вилояти.

# QO'SHSAHTEADA -

Viloyat aholisining 653 mingga yaqinini yoshlar tashkil etib, ular o'rtaida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, kelajagimiz egalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

## YOSHLAR – E'TIBORDA

– 73 ming nafarga yaqin yoshlarga Ichki ishlar organlari xodimlari mas'ul, – deydi viloyat IIB JXX HPB Yoshlar bilan ishlash bo'linmasi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Ulug'bek Sharipov. – Yoshlar shijoati, intilishini to'g'ri yo'naltira bilsak, ularning hayotda o'z o'rnilarini topishiga, jinoyat va huquqbazarliklarning keskin kamayishiga erisha olamiz.



O'tgan yil yakuni bo'yicha viloyat IIB tomonidan otaliqqa olingan yoshlar masalalarini o'rganish natijasiga ko'ra, 60587 ta muammo aniqlanib, 57338 tasi (94,6 foiz)-ni hal etish choralar ko'rildi. Yoshlardan 2000 nafarining bandligi ta'minlandi, 1210 nafari o'zini o'zi bandqildi, 879 nafari kasb-hunarga

jinoyat sodir etish ko'rsatkichlari kamaydi.

Ayni kunlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiylik kasbiga qiziqtirish maqsadida Sharqiy harbiy okrugning «G'urumsaroy» dala-o'quv maydonida «Jasorat maktabi» 10 kunlik o'quv yig'in tadbirleri o'tkazilmoqda.

o'qitildi, 1483 nafariga kredit ajratildi, 381 nafariga moddiy yordam ajratildi, 369 nafariga subsidiya berildi, 22 nafarining kontrakt to'lovi to'lab berildi, 54285 nafarining boshqa muammolari hal etildi.

Mehnat migranti bo'lgan 666 nafar yosh yashash manzillariga qaytarilib, bandligi ta'minlandi. Olib borilgan ishlar samara berib, viloyat hududida ular tomonidan

## POLKOVNIKDAN CHIQQAN RAIS

Davlatobod tumanidagi «Istiqlol» mahalla fuqarolar yig'ini bundan uch yil avval tashkil etilgan. Ushbu mahallaga uzoq yillar ichki ishlar organlari tizimida mas'uliyatlari lavozimlarda faoliyat olib borgan iste'fodagi polkovnik Ulug'bek Iminov raislik qiladi.



Ilk xizmat faoliyatini 1989-yilda viloyat IIB Yong'in xavfsizligi boshqarmasida boshlagan Ulug'bek aka keyinroq Jamoat tartibini saqlash, Qo'riqlash boshqarmalarida turli rahbarlik lavozimlari da faoliyat olib bordi. 2017-2021-yillarda IIV Namangan akademik litseyida direktor vazifasida ishladi.

Ichki ishlar organlarida mas'uliyatlari lavozimlarda ishlab orttilgan tajriba uning keyingi faoliyatida asqatdi. Odamlar bilan ishlash, ular dardiga qulqoq tutish, muammolarni hal etish

borasidagi jonkuyarligi bilan ko'pchilikka ibrat bo'la oldi.

«ISTIQLOL» MAHALLASIDA O'ZBEK, QORAQUALPOQ, RUS, QOZOQ, QIRG'IZ, TATAR, TURK, TOJIK KABI O'NDAN ORTIQ MILLAT VAKILLARI ISTIQOMAT QILADI. ULAR AHIL VA HAMJAHATLIKDA HAYOT KECHIRISHMOQDA, ASOSAN KO'PQAVATLI UYLARDA YASHASHADI. MAHALLA YET-TILIGINING «XONADONBAY» O'RGANISHLARI NATIJASIDA AHOLINING TURLI MUAMMOLARI MUTASADDILARNI JALB QILGAN HOLDA TO'LIQ O'Z YECHIMINI TOPDI.

– Ayni paytda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlimiga berilayotgan amaliy

yordam tufayli mahallada ishsizlar soni keskin kamaydi. Profilaktika inspektori, mayor Bekzod Madamnov chuqur huquqiy bilimga ega, xalq bilan oqilona muloqot qila oladi. Shu bois birgalikdagi amaliy ishlaramiz o'z samarasini berib, hududimiz jinoyatchilikdan xoli, «yashil» toifaga o'tgan, – deydi Ulug'bek Iminov. – Afsuski, guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, o'z kasbiga noloyiq, tizimga adashib kirib qolganlar ham yo'q emas. Ana shundaylarning noplari ishlari tufayli butun tizim xodimlariga salbiy baho berish umuman noto'g'ri, deb bilaman.

## UNING SHIJOATI BALAND

Viloyat IIB tizimidagi sa-lohiyatli yosh xodimlardan biri Pop tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant Boburmirzo Haydaraliyevdir. Xizmat faoliyatini boshlaganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, o'tgan qisqa vaqt mobaynida o'zining har tomonlama iqtidori va salohiyatini ko'rsata oldi.

U sport musobaqalari va kitobxonlik yo'nalishidagi tanlovlarning g'olib sifatida hamkasblari namuna bo'lmoxda. O'tgan yili sportning armrestling turi bo'yicha viloyat IIB xodimlari o'rtaida bo'lib o'tgan musobaqada 85 kg vazn toifasida faxrlı 1-o'rinni egalladi.

Shuningdek, «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida ham g'olib bo'lgan edi. «Eng yaxshi profilaktika inspektori» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida esa uchinchi o'rinni qo'lg'a kiritdi.

– O'tgan yil yakuni bo'yicha xodim o'z tashabbusi bilan 2 ta jinoyatni fosh etdi. 300 nafar fuqaroning murojaatini o'rganib, tegishli tartibda chora ko'rди. «Olmazor» mahallasi hududida 100 marotaba profilaktik tadbirlar tashkil etdi, – deydi Pop tumani IIB boshlig'ining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinosari, mayor Abror Boy davlatov. – Biz Boburmirzo kabi shijoatli yoshlarimiz bilan faxrnamiz.



# NAMANGAN VILOYATI

To'raqo'rg'on tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Malohat Botirova tomonidan olib borilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlari natijasida o'tgan yil yakuniga ko'ra tumanda xotin-qizlar o'rtaida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar soni sezilarli darajada kamaygan.

## AYOLLAR HUQUQLARI HIMOYACHISI

«Oila turmush» tadbiri doirasida nizoli oilalarining 268 tasi yarashtirildi, 285 tasining aliment bilan bog'liq muammoli masalasi bartaraf etildi hamda tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 44 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirildi.

suhbatlar o'tkazilib, xorijga chiqish va O'zbekiston Respublikasiga qaytishda belgilangan qonun-qoidalarga rioya qilish, pasport tizimi bilan bog'liq huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etmaslik to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi.



Shuningdek, tuman hududidan chet elga ishslash maqsadida uzoq muddatga ketayotgan ayollar bilan profilaktik

– Ayolning oiladagi haq-huquqi himoya qilinib, ular baxtli hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratilyapti.

Ana shu vazifani to'laqonli bajarish uchun astoydil harakat qilamiz, – deydi lavhamiz qahramoni biz bilan suhbatda.

## «VIRTUAL POLIGON»



Viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasining tajribali, malakali mutaxassislari jinoyatlarni ochishda yuksak kasb mahoratlarini namoyon qilishmoqda. Shuningdek, hodisa joyida jinoyatlarni «issiq izida» ochish, dalillarni to'liq va protsessual to'g'ri rasmiylashtirib olishga imkon yaratuvchi zamon tabligaga javob beradigan texnik vositalar bilan jihozlangan xizmat avtomashinasidan ham oqilona foydalanoqmdalar.

– Uychi tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasida «virtual poligon» tashkil etilgan. Mazkur texnik vosita yordamida amaliyotda ko'p uchraydigan holatlar yuzasidan hodisa joyi sun'iy ravishda qayta jonlantirilib, xodimlarning amaliy ish tajribasi oshirilishi yo'iga qo'yildi, – deydi viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, kapitan Dos-ton Erkinjonov.

## YANGI G'ALABALAR SARI



– Ichki ishlar organi xodimi bo'lish – men uchun sharaf. Sohada faoliyat olib borishim sportda katta natijalarni qo'lg'a kiritishimga sabab bo'ldi. Ortimda katta jamoa bor, uning sharafini munosib himoya qilishim kerak. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi rahbariyati mena har gal g'alaba bilan qaytishimga katta ishonch bildiradi. Ishonchga munosib bo'lish uchun astoydil harakat qilaman, – deydi sportning kombat aikido turi bo'yicha jahon chempioni, viloyat IIB JXX JTSB PPXB safdor xodimi Muhammadali Abduvahobov.

Muhammadali 2001-yili To'raqo'rg'on tumani Buramatut qishlog'ida tug'ilgan. Uning katta sportga qada-

mi bolaligidan boshlangan. O'rta maktabni bitirib, Qurolli Kuchlar safida yigitlik burchini o'tab qaytgach, 2023-yilda viloyat IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Jamoat tartibini saqlash boshqarmasiga ishga qabul qilindi. Ayni payda u PPX batalyonini maxsus otryadi otlig guruhi patrul-post xizmati inspektori lavozimida xizmat olib borish barobarida, Namangan davlat pedagogika institutining jismoniy madaniyat yo'nalishi 3-bosqichida sirtdan tahsil olmoqda.

Muhammadali besh karra O'zbekiston chempioni, olti karra xalqaro turnirlar g'olib, ikki karra Osiyo chempioni bo'lgan.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Gulchehra BUVAMIRZAYEVA tayyorladi.


[www.postda.uz](http://www.postda.uz)

[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)

[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)

[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)



Международное сотрудничество

## ИЗУЧАЯ ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ

В Академии Министерства внутренних дел Узбекистана прошли учебные курсы для следователей органов внутренних дел, сотрудников подразделений по противодействию киберпреступности, а также представителей профессорско-преподавательского состава вуза на тему «Борьба с преступлениями в области платежных систем и информационных технологий».



**Для справки:** в соответствии с перспективными планами будут организованы краткосрочные курсы повышения квалификации следователей на базе ведущих вузов зарубежных стран (США, Турция, Южная Корея, Япония, Италия, Беларусь, Китай и др.).

На сегодняшний день 133 следователя прошли обучение у ведущих специалистов IT-парка, 51 следователь Следственного департамента и его низовых подразделений углубили знания, приняв участие в учебных курсах и семинарах, состоявшихся в зарубежных странах (34 – в Турции, 10 – в Южной Корее, 2 – в ОАЭ, 2 – в Беларусь, 2 – в Венгрии, 1 – в России).

В качестве спикеров выступили директор по безопасности 3-го класса Главного управления безопасности Министерства внутренних дел Турецкой Республики Ерден Шахин, помощник комиссара Управления по борьбе с киберпреступностью Главного управления безопасности МВД Турецкой Республики Мехмет Фуркан Арслан.

В ходе занятий участники получили исчерпывающие ответы на интересующие вопросы, вместе с зарубежными специалистами обсудили проблемные аспекты. Был изучен опыт Турции и передовые практики борьбы с противоправными действиями в киберпространстве, рассмотрены эффективные меры повышения осведомленности населения об их угрозах.

Соб. корр.

### ■ Джизакская область

## КОГДА ПОМОЩЬ РЯДОМ

Старший инспектор группы профилактики правонарушений службы общественной безопасности Управления по обеспечению безопасного туризма старший лейтенант Шохрух Абдулахатов, несший дежурство в районе подвесного моста в туристско-рекреационной зоне «Зомин», заметил двух девушек-подростков без сопровождения взрослых.

В ходе проверки выяснилось, что Х. Р. и Ю. О., проживающие в махалле Уйгур Алтынкульского района Андижанской области, 1,5 месяца назад ушли из дома и числятся пропавшими без вести. Старший лейтенант оформил их в Центр оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним при отделе профилактики правонарушений службы общественной безопасности областного УВД.

Между тем, его коллега старший инспектор группы охраны общественного порядка капитан Нурали



Эшкулов занимался организацией поиска девяти заблудившихся граждан России, ушедших на не-

сколько километров вглубь леса.

Таковы будни представителей сферы. Отдельное направление работы – проведение пропагандистских мероприятий по предупреждению правонарушений.

В зону их ответственности входят населенные пункты, в которых проживает свыше 5,3 тыс. человек, функционируют 5 средних общеобразовательных школ и 4 их филиала, 15 крупных отелей, 140 семейных гостевых домов, 34 объекта культурного наследия, 28 площадок экотуризма, терри-



тория лесного хозяйства и собственно заповедник.

В последние годы сюда приезжает около 5 тысяч человек, желающих насладиться зимними пейзажами.

Люди, скучающие по природе и тишине, стремятся в этот райский уголок. Сотрудники системы обеспечения безопасного туризма вносят значи-

тельный вклад в создание комфортных условий для отдыха путешественников.

В минувшем году и за прошедший период текущего года они не допустили совершения преступлений на территории рекреационной зоны.

Алижон  
АБДУСАТТОРОВ,  
соб. корр.



# «YASHIL» IQTISODIYOT – TARAQQIYOT KAFOLATI

Butun dunyo davlatlari qatori, mamlakatimizning ham «yashil» iqtisodiyotga o'tishi masalasi eng muhim hayotiy zaruriyat bo'lib turibdi. Ko'pchilik vatandoshlar «yashil» iqtisodiyotni energetika sohasini isloq qilishdan iborat deb hisoblashadi. Vaholanki, uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, ekologik barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o'rmon hududlarini kengaytirish, cho'llanishni qisqartirish kabi ko'p qirrali va keng qamrovli chora-tadbirlar ham kiradi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotning turli tarmoqlari-da «yashil» texnologiyalarni joriy etish aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida shaharlardagi yashash qulaylashadi, bolalar o'limi qisqaradi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi uzayadi. Lotin Amerikasi va Afrikaning ayrim mintaqalarida hatto tashqi migratsiya oqimlari qisqarib, inson kapitalining rivojlanishi kuzatilgan.

Inson faoliyatining tabiatga ta'siri darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich – «ekologik iz» taraqqiyotni belgilab beruvchi obyektlarni barpo etish, iste'mol uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadida qanchalik ko'p miqdorda mahsuldar yer va toza ichimlik suvidan foydalanayotganimiz hamda chiqindilar hosil qilayotganimizni ifoda etadi. «Yashil» iqtisodiyot o'ziga xos iqtisodiy model sifatida shu talablarga javob berishga qaratilgan. Tabiat bilan uyg'unlikda faoliyat yuritish, resurslardan barqaror va samarali foydalanish, energiya manbalariga tegishli muammolarni hal etish va ekologik xavflarni minimallashtirish – bularning bari «yashil» iqtisodiyotning asosiy maqsadlari bo'lib, ular barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi.

**Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo'yicha Parij bitimiga ham qo'shilgan. Har ikkala hujjat milliy hukumatlar zimmasiga «yashil taraqqiyot» talablarini bajarish majburiyatini yuklaydi. Bu, ertami-kechmi, «yashil» iqtisodiyotga baribir o'tishimiz kerakligini anglatadi.**

Hamyurtlarimizning fikr-mulohazalari, xohish-istaklari atroflichcha o'rganilib, bildirilgan tavsiyalardan kelib chiqqan holda, bu boradagi ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2025-yil yurtimizda «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb e'lon qilindi. Prezidentimizning «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi va unda bir qator vazifalar belgilab berildi.

**Farmonga ko'ra, atrof-muhitiga ta'sir ko'rsatish bo'yicha I va II toifalarga mansub korxonalarining ekologik ishlab chiqarishga o'tish-dagi harakatlarini rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-avgustdan boshlab quyidagi tartib joriy etilishi nazarda tutildi:**

**birinchi bosqichda** – atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringi stansiyalarini o'rnatgan korxonalariga: tabiatga zarar yetkazish bo'yicha kompensatsiya to'lovlaridan shakllangan qarzdorlikdan voz kechish;

**tabiatga zarar yetkazish bo'yicha respublika byudjetiga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining 50 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish;**

**ikkinci bosqichda** – monitoring stansiyalarini o'rnatgan korxona kelgusi bir yil davomida chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini o'rnatganda, tabiatga zarar yetkazish bo'yicha respublika byudjetiga yo'naltiriladigan kompensatsiya to'lovlarining 70 foizigacha bo'lgan qismini ikki yil davomida qaytarish belgilangan.

ekologik zararlarni majburiy sug'urta-lash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqiladi.

Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilangan. Shuningdek, farmon ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish «O'zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Respublika Komissiyasi zimmasiga yuklangan. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilishi belgilangan.

«Yashil» iqtisodiyot innovatsion va ekologik tozalikka asoslangan model hamdir. Chunki u energiya va resurslardan samarali foydalanish jarayonlarini ishga soladi. Bu ishlab chiqarish jarayonlarida xomashyo va energiya sarfini kamaytirish orqali moliyaviy tomondan foya berishi ham mumkin.

o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir vaqtida, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Bu tabiatga zarar yetkazmasdan va kelajak avlodlar uchun barqaror muhitni saqlab qolishga qaratilgan iqtisodiy tizimi barpo etishdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mamlakatimizda har yili 200 million tup daraxt va buta ekilib, yashillik miyosini 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish maqsadi belgilangan. Xususan, ekologik muhit eng og'ir bo'lgan Orolbo'yida hozirgi paytda yashil qoplama 2 million gektardan oshdi.

Yurtimizda quyosh energiyasi sohasida investitsiyalar aniq dinamika bilan o'smoqda. Masalan, Naman-gan viloyatidagi quyosh stansiyasi va Toshkent viloyatidagi quyosh panellari loyihalari amalga oshirilgan. Bunday loyihalar mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirishga va uglerod emissiyasini kamaytirishga katta hissa qo'shadi.

Mamlakatimizning energetika sektoridagi islohotlar, yangilanadigan energiya manbalariga sarmoyalari kiritish, quyosh va shamol energiyasini faol joriy etish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik – bularning bar-chasi yurtimiz iqtisodiyotini ekologik jihaddan tozalash va uzoq muddatda barqarorlashtirish uchun qo'yilayotgan muhim strategik qadamlardir.

Xulosa o'rnda aytish mumkinki, respublikamizning «yashil» iqtisodiyotga o'tish jarayoni eng muhim ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ilg'or tashabbuslar bilan quvvatlanmoqda. Uni amaliyotga tatbiq etish mamlakatimizning ekologik xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, tabiiy resurslarni tejash imkonini berish bilan bir qatorda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarining rivojlanishida, aholimiz farovonligining yanada oshishida alohida ahamiyat kasb etadi.

**Sarvar SOBIROV,  
o'z muxbirimiz.**



Bunda mazkur bandda nazarda tutilgan imtiyozlar davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan beriladigan xulosa asosida taqdim etiladi.

2025-yil 1-noyabrga qadar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan xo'jalik faoliyatini yurituchi korxona va tashkilotlar tomonidan yetkazilgan

O'zbekistonning energetika siyosatida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'nalishlar ko'zda tutilgan. Moliyalashtirish sohasida «yashil» moliyalashtirish konsepsiysi joriy qilindi va bu davlatning «yashil» iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi muhim qadamlaridan biridir. «Yashil» iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiya miqdori ham yuqori sur'atlarda ko'paymoqda.

«Yashil» iqtisodiyot konsepsiysining maqsadi – barqaror iqtisodiy



**Maqolani  
qoraqalpoq tilida  
o'qish uchun  
QR-kodni  
skaner qiling.**

SOHAVIY XIZMATLARDA

## BIRINCHI DARAJALI MASALA

**IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Sirdaryo viloyati Temiryo'llarda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi hamda uning joylardagi bo'linmalarida har kun xizmat jarayoni qizg'in kechadi.**

Kadrlar bilan ta'minlash guruhi inspektori, kapitan Doston Mavlonovning ta'kidlashicha, boshqarma xo-dimlari Sirdaryo tumanidan to Jizzax viloyatining Zomin tumani, buyog'i Bekobod shahrigacha bo'lgan 150 kilometr uzunlikdagi temiryo'l



yo'lovchilar, poyezdlarda tashiladigan yuklar xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor beriladi.

O'tgan yili tashilayotgan yuklarni o'g'irlash bilan bog'liq bir nechta jinoiy holatlar fosh qilingan. Ayniqsa, ko'mir, metall parchalari kabi

uchratish mumkin. Tinim bilmas xodimning ishi bayram kunlarida yanada qizg'in tus oladi. Boisi, bunday kunlarda yo'lovchilar oqimi yanada ko'payadi.

Xavfsizlikni ta'minlash temiryo'llar o'tgan aholi punktlarida ham muntazam amalga oshiriladi. Ko'pincha chorva mollarini temiryo'llarda boqish, shu orqali poyezdlar qatnoviga xalal berish kabi holatlar uchrab turadi. Jumladan, yaqinda Xovos tumanining «Oqchangal», Mirzaobod tumanining «Yangiyer» mahallalarida ana shunday holatlar aniqlandi. O'ttizdan ortiq qo'y-qo'zilarni boqib yurgan bolakaylarning ota-onasiga nisbatan qonuniy chora ko'rildi. Boshqa holatlarlarda esa temiryo'l bo'ylab yotqizilgan kabellar, transformatorlarga zarar yetkazish, ularni o'g'irlab rangli metall sifatida sotish kabi ayanchli hodisalarga ham qo'l urilmoqda. Shu sababdan aholi punktlarida ana shunday holatlarning oqibatlarini aholiga targ'ibot ishlari domiy tarzda olib borilmoqda.

**Abdurahmon  
MUSTAFOQULOV,  
o'z muxbirimiz.**

Sirdaryo viloyati.



tizimi, o'ndan ortiq bekatalar, depo va korxonalarda xavfsizlikni ta'minlashga mas'ul. Birgina «Xovos» temiryo'l vokzali muhim chorraha bo'lib, mamlakatimizning sharqiy hududlarini g'arb va janubdagiloyatlar bilan bog'laydigan obyekt sanaladi. Shu bois

ochiq tarzda tashiladigan yuklarni o'g'irlashga urinish holatlari o'z vaqtida bartaraf etilgan.

Viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi PPX komandiri, safdar Sirojiddin Turg'unovni ko'pincha Xovos, Guliston, Sirdaryo shaharlardagi vokzallarda

**Katta serjant Hojiakbar Hasanov o'z kasbiga mas'uliyat bilan qaraydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qiyinchiliklar bilinmaydi. U bugungi kunda poytaxtimizning Shayxontohur tumani IIOFMB Axborot texnologiyalarini joriy etish guruhi muhandisi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.**



Toshkent aloqa kasb-hunar kollejida tahsil olib, o'z sohasini puxta egallagan lavhamiz qahramoni mehnat faoliyatini ichki ishlar organlarida boshladi. Mana, shunga ham 17 yil bo'libdi. Bu orada u ustozlari va hamkasblaridan o'rganganlarini amaliyotda qo'llab, tajriba to'pladi.

Hojiakbar tuman IIOFMB hamda 5 ta IIB navbatchilik qismlari, xodimlarning xizmat xonalarida kompyuter texnologiyalari va aloqa tizimidagi mavjud kamchiliklar bartaraf etilib, lokal tarmoqqa to'liq ulanishida bevosita ishtirok etdi. Hozirda barchasida bosqichma-bosqich profilaktika ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, tuman hududida joylashgan «Shodlik» hamda «Gulbozor» MFY hududida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish uchun hamkasblari bilan birgalikda shu ikki mahallaning bir qancha ahamiyatga molik nuqta-lariga «Face ID», «PTZ» hamda boshqa turdagি

kuzatuv kameralarini o'rnatib, ularni Toshkent shahar IIBB Yagona tezkor boshqarma markazi «Qalqon» dasturiga integratsiya qilishdi.

Profilaktika inspektorlari vakolatiga kiruchi ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yurituvni to'liq elektron shaklga o'tkazish va ularning sud majlislarida masofaviy tarzda qatnashish amaliyoti joriy etilishi munosabati bilan Oliy sudning «E-XSUD» axborot tizimi IIVning «E-ma'muriy ish» yagona axborot tizimi bilan to'liq integratsiya qilingan. Sud jarayonlarini masofaviy tarzda o'tkazish maqsadida tumandagi 5 ta IIBda «onlayn sud» tizimi ishga tushirildi. Bunda ham katta serjant H. Hasanovning munosib hissasi bor. U bundan faxr hissini tuyadi.

**Sarvar SOBIROV,  
o'z muxbirimiz.**

Toshkent shahri.

KASB FIDOYISI

## HURMAT-EHTIROM ILA

Inson hayotida tanlagan kasbidan saodat topishi nihoyatda muhim. Ayniqsa, u jamoada faoliyatini oddiy xodimlikdan boshlab rahbar darajasigacha yetgan, hamkasblarining hurmat-e'tiborini qozongan bo'lsa. Yaqinda ana shunday insonlardan biri – Ichki ishlar vazirligi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Ulug'bek Muhamedovni pensiyaga kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.



Tadborda Ichki ishlar vazirining o'rinosi – IIV huzuridagi Tergov departamenti boshlig'i, polkovnik Ramazon Ashrapov Ichki ishlar vazirining tashakkurnomasini yetkazib, unga «Ichki ishlar organlarining faxriy xodimi» ko'krak nishonini tantanali ravishda topshirdi.

– Polkovnik Ulug'bek Muhamedov rahbarlik faoliyati davomida sohani yanada takomillashtirish va rivojlantirishga, xususan, raqamlashtirishga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida ko'pgina ishlarni amalga oshirdi, – dedi IIV M va

FRBB Axborot-tahlil bo'limi boshlig'i, polkovnik Faxridin Tursunov.

Tadbir yakunida polkovnik U. Muhamedov so'z olib, o'ziga ko'rsatilgan yuksak hurmat-ehtirom uchun vazirlik rahbariyatiga minnatdorlik bildirib, jumlandan shunday dedi:

– Uzoq yillik faoliyatining asosiy qismi shu jamoada o'tdi. Shu yerda o'z o'rniymi topdim, rahbar darajasiga yetdim. Xizmatda qanday yutuqlarga erishgan bo'lsam, bunda hamkasblarim, ustozlarimning munosib hissasi bor.

**Abu KENJAYEV,  
o'z muxbirimiz.**

## FAXR HISSI

Kuzatuv kameralarini o'rnatib, ularni Toshkent shahar IIBB Yagona tezkor boshqarma markazi «Qalqon» dasturiga integratsiya qilishdi.

Profilaktika inspektorlari vakolatiga kiruchi ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha ish yurituvni to'liq elektron shaklga o'tkazish va ularning sud majlislarida masofaviy tarzda qatnashish amaliyoti joriy etilishi munosabati bilan Oliy sudning «E-XSUD» axborot tizimi IIVning «E-ma'muriy ish» yagona axborot tizimi bilan to'liq integratsiya qilingan. Sud jarayonlarini masofaviy tarzda o'tkazish maqsadida tumandagi 5 ta IIBda «onlayn sud» tizimi ishga tushirildi. Bunda ham katta serjant H. Hasanovning munosib hissasi bor. U bundan faxr hissini tuyadi.

**Sarvar SOBIROV,  
o'z muxbirimiz.**

Toshkent shahri.

ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

## ОЗОДЛИКНИНГ ОЛТИ ОЙИ

**Юртимиз тарихида сабиқ Иттифоқ прокуратураси-нинг Гдлян ва Иванов бошчилигидаги тергов гурухи халқимиз бошига солган кулфатлар билан из қолдирганини биламиз. Бухоро вилояти ИИБ Социалистик мулкни талон-торож қилишга қарши кураш бўлими (ОБХСС) бошлиғи лавозимида ишлаган подполковник Аҳат Музаффаров ҳам ўша манфур кучлар таъсирига тушганлардан эди.**

Аҳат Музаффаров 1937 йил 4 апрелда Қашқадарё вилояти-нинг Шаҳрисабз шаҳрида туғилган. Тенгқурлари қатори унинг ҳам болалиги оғир турмушнинг заҳматлари билан ўтади. Аммо у таълим олишни канда қилмайди. 1954 йилда шаҳардаги ўрта мактабни тамомлайди ва ўша йили Мираки тумани прокуратураси котиби вазифасида иш бошлайди. У пайтлар кадрлар тақчил бўлиб, зеҳни ўткир, билимдон ёшларга талаб катта эди. Икки йилдан кейин туман ҳалқ судининг котиби бўлиб ишни давом эттирган. 1959–1965 йилларда Тошкент давлат университетидаги сиртқи йўналишда ҳам таҳсил олади. Шу орада Шаҳрисабз тумани ҳалқ суди ижрочи-си, Сурхондарё вилояти суди девонхона мудири, вилоят суди аъзоси сифатида фаол хизмат қилди. 1967–1971 йилларда Тер-миз шаҳар ҳалқ суди судьяси, 1971–1972 йилларда Сурхон-

дарё вилояти прокурори лавозимларида сидқидилдан ишлади.

Хизматда катта тажриба тўплаган моҳир юрист фаолиятини 1972 йили Сурхондарё вилояти ИИБ Тергов бўлими бошлиғи лавозимида давом эттиради. Шундан сўнг Сариосиё тумани ИИБ бошлиғи (1975–1978 йилларда), Бухоро вилояти Ромитан тумани ИИБ бошлиғи (1978–1979 йилларда), Бухоро вилояти ИИБ ОБХСС бошлиғи (1979–1983 йилларда) лавозимларида самарали фаолият юритади.

Ажойиб раҳбар, камтарин инсон сифатида Аҳат Музаффаров ўз атрофига кўплаб тажрибали ходимларни тўплади. Ёш, иқтидорли ходимларга ғамхўрлик қилиб, уларни тарбиялади. Шу ўринда шогирдлардан бири Саъдулло Бўроновнинг у ҳақдаги хотираларини келтирсан:

— Аҳат ака Ромитан тумани ИИБда бошлиқ бўлиб ишлаёт-

ганида хизматни бошлаганман. Кўп ўтмай, у кишига ҳайдовчилик қила бошладим. Вилоят ИИБ ОБХСС бошлиғи лавозимида тайинланганида ҳам хизматни бирга давом эттиредим. Ўшанда тошкентлик бир аёл келиб, унга: «Сиз Ромитан туманида ишлаган экансиз. Эрим Газлидаги маҳсус жазони ижро этиш колониясида ётиди. Чиқаришга ёрдамлашинг», дея минг сўм пул узатади. Аҳат ака: «Пулингизни солиб қўйинг, бўлмаса, қўлингизга кишин тақиб, қамоққа оламан», деб жавоб қайтаради. Ушбу воқеадан сўнг кўп ўтмай йўлда кетаётганимизда автоҳалокат устидан чиқиб қолиб, тўхтадик.

Қарангки, ГАИ формасидаги икки ходим тўппонча тираб, қўлимизни қайришиди. Аҳат аканинг қўлини ўша аёл беролмаган маҳсус пулга теккизиб, бармоқ изларини олишида ва олиб кетишиди. Кейин билсак, улар соҳта ходимлар экан...

Тергов жараёнида мендан биринчи сўрашгани шу савол бўлди: «Музаффаров кимга пул берган ва кимдан олган?» Яна қайси аёл билан юрганини ҳам айт, деб дўқ уришарди. Билмайман деб туриб олдим. Шунга қарамай, пора беришда воситачилик қилган деган айлов билан мени ҳам қамашди.



Аҳат Музаффаров 1983 йил 27 апрелда ҳибса олинди. Мансаб ваколатини суистемол қилиш, шунингдек, 61 нафар фуқародан пора олганлик, 9 кишига пора берганликда айбланди ва суд томонидан унга ўлим жазоси белгиланди. Ушбу суд ҳукми кейинчалик 15 йиллик қамоқ ва 5 йиллик сургун жазосига ўзгартирилди. Қамоқ муддатини тўлиқ ўтаган А.Музаффаров қатагон, ноҳақлик ва адолатсизлик қурбонига айланди. У озодликдан сўнг олти ойгина яшади, холос.

**Мирзоқул АҲАДОВ,  
ўз мухбиришим.**

Бухоро вилояти.



«Қатортол» маҳалласида «грин кард» соҳиби ролини ижро истиқомат қилувчи Ж.Р.дан 20 минг АҚШ доллари олади. Шу тарзда у жizzахлик 19 нафар йигит ва уларнинг ота-оналаридан 127 минг 340 АҚШ доллари ҳамда 337 миллион 992 минг сўм ундиришига муваффақ бўлади.

Қизиги, айрим жабрланувчиликнинг ота-оналари Ш.Ж. билан сұхбатлашиб, «қўхликкина» қиз ёқиб қолгани боис уни келин қилишга розиликлари ифодаси сифатида бошига рўмол ёпдилар. Бир йилдан ошиқ вақт ўтса-да, хорижга кета олмаган йигитлар ҳамда уларнинг яқинлари шубҳага тушиб, Самарқандга серқатнов бўлиб қолишиди. Мазкур жараёнда айрим жабрланувчилар Д.Р.нинг идорасида бир-бирларига дуч келишади. Камига «грин

**ҚИЛМИШ – ҚИДИРМИШ**

## БЎЙДОҚЛАР УЧУН ТУЗОК

Самарқанд шаҳрининг «Мотрид» маҳалласида доимий рўйхатда турувчи, айни вақтда жазони ижро этиш муассасасида бўлган Д.Р.ни яхши танийдиганлар унга «Тилида сехри бор», дея таъриф берадилар. Бунинг сабаби эркакнинг ёлғонни ростдек сўзлаши, фирибгарлик орқали кўпни қаҳшатганидир. Табиийки, қилмишлари жазосиз қолмади, 6 марта судланган бу шахс умрининг бир қисмини панжара ортида, яна анчагина вақтини ички ишлар органлари пробация хизмати назорати остида ўтказган.

Д.Р. Самарқанд шаҳрида «грин кард» лотереясида иштирок этмоқчи бўлганларнинг маълумотларини расмий сайтга киритишга ихтисослашган тадбиркорлик субъекти очганида «Яна бир балони бошламаса бўлди», дейдиганлар топилди. Афсуски, улар адашмаганди.

Қисқаси, фириб устаси Жиззах шаҳрида ҳам ўз тадбиркорлик субъектининг филиалини очди ва мазкур шаҳарнинг «Наврўз» маҳалласида истиқомат қилувчи С.Ж.ни ишга жойлаб кўйди. Кўп ўтмай ана шу ўзи билмаган ҳолда Д.Р.га янги фирибгарлик фоясини тақ-

дим қилади. Яъни, ўзи ҳақидаги маълумотларни расмий сайтга киритиш учун келган йигитлардан бир нечтаси С.Ж.дан «грин кард» сиз АҚШга кетиш йўллари борми?», дейе суринтирадилар. Қиз уларга аниқлаштириб, жавобини айтишига вавда беради ва бошлиғидан маслаҳат сўрайди.

Ўз навбатида, Д.Р. бўйдокларни шилиш режасини ишлаб чиқиб, С.Ж.га АҚШга кетмоқчи бўлган йигитларни ўзига учраштиришни сўрайди. У билан юзлашганларга эса «грин кард» соҳиби бўлган қизга уйланишини, кўнглига ёқмаса, АҚШга

боргач, ажрашиб кетишини таклиф қилади. Фирибгар бу ҳийласини амалга ошириш мақсадида Самарқанд вилоятининг Жомбой туманида яшовчи, ростдан ҳам «грин кард» соҳиби бўлган Ш.Ж.ни яхноий шерикликни таклиф қилади. Аммо қиз бундай ишларга кўл урмаслигини маълум қиласди.

Ушбу найранги ўтмаган Д.Р. кўл остида ишлайдиган, Пайариқ туманининг «Гулистан» маҳалласида яшовчи Ш.Ж.ни суратидан фойдаланган ҳолда соҳта «грин кард» ясаб, АҚШга кетиш илинжида ёнаётгандарга кўрсатади. «Куёв»лар қиз билан учрашиш истагини билдирганда эса ходими Ш.Ж.ни бўлғуси «келин» ролини ўйнаб беришга кўндиради.

Натижада жиноий гурух тузогига бўйдоқ йигитлар туша бошлайди. Хусусан, Д.Р. «Хорижга кетиш харжатлари» изохи билан Шароф Рашидов туманининг

кард» соҳиби ролини ижро эттаётган қизни иш-устидаги кўрадилар. Жанжал бошлангач, фирибгар қочиб кетади.

Табиийки, жабрланувчилар ички ишлар органларига ариза ёздилар. Шу асосда гумон қилинувчига нисбатан қидирив эълон қилинди. Пиравордида, қоюқ Қозогистон чегарасидан ўтаётганида кўлга олинди. Суд Д.Р.га 9,9 йил, С.Ж.га 5,6 йил, Ш.Ж.га 4,6 ой озодликдан марҳум қилиш жазосини тайинлади. Ачинарлиси, фирибгардан жабрланувчиларга етказилган зарарнинг катта қисмини ундиришнинг иложи топилмади. Хуллас, хорижга кетиш орзуси 19 нафар йигит ва уларнинг яқинлари учун жуда қимматга тушди.

**Бобомурод ЭРКИНОВ,  
майор.**  
Жиззах вилояти.



 Урок духовности и просвещения

## «ЗЕЛЕНАЯ» ЭКОНОМИКА – ГАРАНТИЯ ПРОГРЕССА

Сегодня, когда экологические вызовы стоят особенно остро, переход к «зеленой» экономике является не просто желательным, а необходимым условием устойчивого развития. Для Узбекистана, обладающего богатым природным потенциалом и стремящегося к инновационному развитию, «зеленая» экономика – путь к прогрессу.

Узбекистан активно работает над созданием благоприятных условий для развития «зеленой» экономики. В республике осуществляются масштабные проекты, цель которых привлечение инвестиций в экологически чистые технологии, увеличение доли возобновляемых источников энергии, повышение энергоэффективности.

Наша страна совместно с соседними государствами осуществляет Региональную климатическую стратегию. В Узбекистане свыше 10 процентов от общего объема выработки электроэнергии уже приходится на долю возобновляемых источников. Введены в эксплуатацию крупные солнечные и ветровые электростанции в Бухарской, Джизакской, Кашкадарьинской, Навоийской, Самаркандской, Сурхандарьинской областях. Запущены ГЭС в Андижанской, Самаркандской, Сурхандарьинской, Ташкентской областях. Предприниматели и граждане установили солнечные панели, что позволяет вырабатывать 1,5 миллиарда кВт·ч электроэнергии.

Переход Узбекистана на «зеленую» энергетику – важный шаг на пути к разумному использованию ресурсов и удовлетворению потребностей населения в энергии. В этой связи в Стратегии «Узбекистан – 2030» определены меры по доведению возобновляемых источников энергии до 25 тысяч мегаватт; развитию рынка «зеленых сертификатов» в промышленности и внедрению практики «экологической маркировки» и др. Цель 69 предусматривает стабилизацию экологической обстановки в регионе Приаралья, доведение лесопосадок до 2,3 миллиона гектаров; создание на



дне высохшей части Аральского моря дополнительно 600 тысяч гектаров зеленых площадей. В центре внимания реализация проектов фонда «Зеленый климат» и Глобального экологического фонда по сохранению биоразнообразия, предотвращению эрозии почвы.

В стране осуществляется деятельность по внедрению национальных систем мониторинга выбросов парниковых газов. К 2030 году планируется сократить их выбросы на 35 процентов с последующим поэтапным увеличением данного показателя.

Новый Узбекистан открыт для инноваций. Республика инициировала организацию Многопартнерского трастового фонда ООН по человеческой безопасности для региона Приаралья, сотрудничает с ЮНЕСКО по программе экологического образования. В выступлениях Президента Шавката Мирзиёева на Всемирном саммите по борьбе с изменением климата 29-й сессии Конференции сторон Рамочной конвенции ООН по изменению климата (12 ноября 2024 г.), проходившей в Баку, на саммите «Неделя устойчивого развития Абу-Даби» (14 января 2025 г.) подтверждено следование республики взятым обязательствам. Глава государства подчеркнул, что диверсификация источников энергии и кардинальное сокращение в них доли углеводородов – важнейшие условия смягчения последствий изменения климата. Отмечена эффективность наращивания сотрудничества научных центров, экспертов и ученых с открытым в Ташкенте Центральноазиатским университетом по изучению окружающей среды и изменения климата (Green University).

Объявление в Узбекистане 2025 года Годом охраны окружающей среды и «зеленой» экономики способствует расширению масштаба работ в данном направлении. Как заявил глава государства, использование безопасных, экономически эффективных и экологически чистых источников энергии – это «вклад в будущее, результат чувства ответственности перед последующими поколениями».

Радик ТУМПАРОВ,  
соб. корр.



В рамках общенационального проекта «Яшил макон» поставлена цель озеленить не менее 30 процентов городских территорий.

Принимаются действенные меры по достижению 100-процентного охвата сельского хозяйства водосберегающими технологиями.

За последние 5 лет в энергетический сектор привлечено почти 20 миллиардов долларов инвестиций. В настоящее время реализуется свыше 50 крупных совместных проектов на сумму более 26 миллиардов долларов по производству 24 гигаватт электроэнергии.



## OSOYISHTA «OBI HAYOT»

Baynalmilal shahar sifatida nom qozongan Tallimaron shahridagi «Obi hayot» mahallasida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga Nishon tumani IIB HPB 44/34-sonli huquq-tartibot maskani profilaktika inspektori, katta leytenant Shoxruh Xurriyev mas'ul.

Qo'shni Turkmaniston sarhadlari bilan tutashib ketgan mahalla hududida o'tgan yili birorta jinoyat qayd etilmadi. Shu bois, mana, uch yildirki, mahalla «yashil» toifada.

Albatta, jinoyatchilikning oldini olish borasida ijobja natijalarga erishilishida mahalla fuqarolari, ayniqsa, yoshlarining bandligi ta'minlanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan yili «Ayollar daftari» ro'yxatidagi 30 nafar xotin-qizga o'zini o'zi band qilishi uchun subsidiya asosida tikuv mashinasi va mini pechlar olib berilib, qolganlari kasb-hunarga o'qitildi. Ayrim-

lari doimiy ishga joylashtirildi.

Mahallada kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 4 ta oila «Hududgaz» tuman filiali rahbariga biriktirilgan. «Kambag'allikdan farovonlik sari» tamoyili asosida mazkur oilalarning turmush sharoiti o'rganilib, imtiyozli kreditlar olib berildi.

– Fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarga ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik kabi illatlarning asl mohiyatini tu-shuntirish borasida mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda profilaktik targ'ibot tadbirlari muntazam olib borilmoqda. Bu yo'naliishdagi ishlar



645 nafer o'quvchi ta'limgarbiya olayotgan 34-maktabda ham doimiy yo'lda qo'yilgan, – deydi katta leytenant Shoxruh Xurriyev.

Mahallada davlatimiz rahbarining «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosi yuzasidan ta'sirchan profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Jumladan, muqad-dam sudlanganlar, probatsiya nazoratidagilar hamda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha profilaktik suhabatlar olib borildi. Uzoq muddat chet ellarda yurgan, yashash manziliga qaytgan va xorijiy davlatlarda ishlash istagi bor fuqarolar bilan ham profilaktik suhabatlar

o'tkazilib, ularga yurtimizdag'i imkoniyatlar haqida tushunchalar berilmoqda. Shuningdek, kiberjinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlari ham doimiy diqqat markazida.

Nizoli oilalarning ahvoli mahalla xodimlari bilan birligida o'rganilib, bartaraf etish choralarini amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, aholi gavjum joylar va ko'chalarga, savdo majmualariga videokuzatuv kameralari o'rnatish, ko'p qavatli va yakka tartibdagi uylarni Qo'riqlash xizmati texnik qo'riqloviga olish borasida targ'ibot ishlari olib borilayotir.

**Sodiq RAHIMOV,**  
**o'z muxbirimiz.**  
*Qashqadaryo viloyati.*



## OG'U GIRDOBIGA TUSHMANG

Giyohvandlikka qarshi kurashish maqsadida 1-fevraldan 1-martga qadar mamlakatimizda «Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish» kompleks tezkor profilaktik tadbirlar oyligi o'tkazilmoqda. Navoiy viloyatida ham oylik doirasida yoshlar ishtirokida targ'ibot-tashviqot va nazorat tadbirlari tashkil etilmoqda.

Ana shunday targ'ibot tadbirlaridan birida IIV Tezkor qidiruv departamenti mas'ul xodimi, polkovnik Ahmadjon Matlyubov ishtirokida viloyatda joylashgan oliy ta'limgarbiya muassasalarini talaba

yoshlari hamda maktab o'quvchilari bilan giyohvandlikning ayanchli oqibatlari, ularga qaramlik ortidan sodir etilayotgan jinoyatlar haqida suhabat yushtirildi.



Shuningdek, Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabining ijodkor yoshlari ishtirokida ko'rik-tanlov o'tkazilib, mavzuga doir eng yaxshi suratlar mualiflari munosib taqdirlandi.

Tungi xizmatga jalb etiladigan xodimlar bilan yo'riqnomaga o'tkazilib,

hududlarda giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot o'tkazish, yoshlar bilan alohida suhabatlar olib borish lozimligi ta'kidlandi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
**o'z muxbirimiz.**  
*Navoiy viloyati.*

► ШОГИРД УСТОЗ ҲАҚИДА

# БУ КУНЛАРГА ЕТГАНЛАР БОР...

## Истеъфодаги полковник Тўлқин Мўминов суратига чизгилар

2000 йилларда ички ишлар органларида амалга оширилган ислоҳотлар натижасида вазирлик Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бошқармаси бош бошқармага айлантирилган эди. Сирдарё вилояти ИИБ-да профилактика йўналишида катта тажрибага эга бўлган подполковник Тўлқин Мўминов вазирlikка хизматга ўтказилиб, профилактика хизматига доир меъёрий ҳужжатларни тубдан янгилаш жараёнида фаол қатнашди. Шу даврда милиция таянч пункти профилактика инспекторининг «Худуд паспорти» билан бирга бир нечта услубий қўлланмалар ҳам яратилди. Ушбу услубий қўлланмалар ходимлар хизмат вазифасини қонун доирасида бажаришида муҳим дастуриламал бўлди.

Профилактика инспекторлари учун гўё маёқ бўлиб хизмат қилган «Худуд паспорти»да муқаддам судлангани учун профилактик ҳисобда турувчи шахслар, янгидан профилактик ҳисобга олинганлар, вояга етмаганлар, спиртли ичимликка ружу қўйганлар, оила-турмуш доирасида мунтазам равишда ҳуқуқбузарлик содир этувчилар, нотинч оиласалар, ўқотар куролга эга шахслар ва бошқа ҳуқуқбузарлик содир этиши эҳтимоли бор шахслар билан қандай профилактика ишлар олиб бориш лозимлиги ўз аксини топганди.

Ўша даврда ходимларни турар-жой билан таъминлаш масаласи бугунгидан анча оғир эди. Ижара уй топгунча Тўлқин ака хизмат хонасида қолар, навбатчи ходимлар учун ажратилган хонада тунарди. Вазирlikda оиласидан узоқда яшаб, фарзандлари билан телефонда гаплашиб, уларнинг ҳолидан хабардор бўлиб турарди.



Ҳар бир фахрий хизмат даврини эсга олар экан, сафдошлари, шогирдлари ва устозларини хотирлаши табиий. Тўлқин Мўминов билан кечган сухбатлар, иш бўйича қилинган ўзаро мулоқотлар кишида хушкайфият пайдо қилади. Босиқлик ва вазминлик билан фикр билдириши, таклиф бериши, кўнгилга тегмайдиган тарзда хатоларимизни кўрсатиши, туғишган акадек тўғри йўл кўрсатиши кўз олдимиизда намоён бўлади.

Дарвоҷе, устозимиз Т.Мўминов 1958 йилда Қирғизистоннинг Ўш вилояти Қизилқия туманида туғилган. Ота-онаси Мирзачўлни ўзлаштириш мақсадида Сирдарёга кўчиб келган. Устозимиз шу воҳада улғайган, камол топган. Муддатли ҳарбий хизматни Тинч океани қирғоқларидағи Петропавловск-Камчатск шаҳрида жойлашган ҳарбий денгиз флотида ўтаган.

Хизматдан қайтгач, 1980 йилда ИИВ Тошкент ўрта-маҳсус милиция мактабига, сўнгра олий мактабга ўқишига кирган. Таҳсилдан сўнг Сирдарё вилояти ички ишлар органларида самарали хизмат қилиб, вилоят ИИБ Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бошқармаси бошлиғи лавозимидан полковник унвони билан пенсияга чиқкан.

– Ватан равнақи, оила баҳт-саодати йўлида қилинган меҳнату хизматлар ортда қолса-да, кишига мамнунлик бағишилар экан. Босиб ўтилган умр сўқмоқлари кексалик йўлига туташди. Шу кунларга етмоқ бир вақтлар бизга орзу эди. Яратганга шукур – орзуимиз ушалди. Фарзандлар ардоғида, набиралар қуршовида юриш гаштини сурмоқ ҳам бандасига бир неъмат, – дейди устоз биз билан сұхбатда.

Устозимиз бу йил «14 январь – Ватан ҳимоячилари куни» байрами арафасида вазирlikning «Ички ишлар идоралари фахрийси» кўкрак нишони билан тақдирланди. Бундай эътироф ҳам ҳар кимга эмас. Тўғри-да, бу кунларга етганлар бор, етмаганлар бор...

**Шуҳрат РЎЗИЕВ,  
истеъфодаги подполковник.**

► SOHAVIY XIZMATLARDA

## SHIMOLIY DARVOZALAR DAN BIRIDA

Nukus xalqaro aeroporti mamlakatimizning shimoliy darvozalaridan biri hisoblanadi. Mazkur obyektda xavfsizlikni ta'minlash, huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish, shuningdek, yo'lovchilar uchun qulay sharoitlarni yaratish tashrif buyuruvchilarda mamlakatimiz haqida iliq taassurot paydo qilishi tabiiy. Bu borada Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Nukus aeroporda xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi xodimlari tomonidan bir qator ijobjiy ishlardan amalga oshirib kelinmoqda.

Soha xodimlari aeroport orqali uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarolar bilan tezkor profilaktik suhabatlar olib borishmoqda. Afsuski, ular orasida turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolgan yurtdoshlarimiz ham uchrab turidi. Jumladan, o'tgan yil sentabr oyida «Almati – Nukus» aviareysida uchib kelgan Beruniy tumanida tug'ilgan yo'lovchi X.G. aeroport hududida shaxsini identifikasiya qilish imkonini bermaydigan da-

rajada yuzini to'sib olgani sababli to'xtatildi. O'tkazilgan tezkor surishtiruv ishlari davomida esa u uyali aloqa vositasi orqali xorijda yashovchi fuqaro bilan mamlaka-

timizda taqiqlangan ma'lumotlar almashib kelgani aniqlandi.

– Xorijiy davlatlarga chiqib ketayotgan fuqarolar o'rtaida keyinchalik turli ko'ngilsizliklar bo'imasligi uchun profilaktik-tushuntirish ishlarini olib boryapmiz, – deydi bo'linma boshlig'i, mayor Baymurat Qutlimuratov. – Joriy yilning yanvar oyida yo'lovchilar orasida 1 nafar fuqaro vatanga qaytish guvohnomasi bilan kelgani va yana 1 nafari MDH davlatlariga kirishi taqiqlangani aniqlandi.

Bo'linma shaxsiy tarkibi tomonidan jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga alohida e'tibor qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda, jinoyat va huquqbazarliklarni, baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablari tahlil qilingan holda, Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xizmat ko'rsatish hududiga yaqin joylashgan umumta'lim maktablari, kollejlar, korxona va tashkilotlarda profilaktik targ'ibot uchrashuvlari o'tkazilmoqda.

**Azamat PIRNIYAZOV,  
o'z muxbirimiz.  
Qoraqalpog'iston Respublikasi.**



 Служба пробации

Например, на встрече с лицами, состоящими на учете группы пробации Службы общественной безопасности ОВД города Кувасая, напомнили о необходимости строгого соблюдения ограничений, установленных судом. Сделано предупреждение о недопустимости совершения повторных правонарушений и преступлений.

Во взаимодействии членов республиканской рабочей группы и руководителей территориальных ОВД проведены индивидуальные беседы со 107 поднадзорными лицами, проверены места и условия работы 89 из них.

В городе Фергане один из 15 поднадзорных нарушил ограничения, отсутствуя дома в ночное время. В городе Коканде установлено, что из 21 поднадзорного двое пре-небрегли ограничениями. В Кувинском районе трое из 16 осужденных не находились в своих домах в ночное время. К сожа-

## ЧТОБЫ НЕ БЫЛО РЕЦИДИВА

**В Ферганской области представители Департамента общественной безопасности МВД и руководители Службы пробации областного УВД проводят профилактические мероприятия, в ходе которых детально объясняются правовые последствия повторного совершения преступлений.**



лению, подобные случаи зафиксированы в других городах и районах. По вы-

явленным фактам оформлены соответствующие документы.

Как правило, лицам, которые злонамеренно уклоняются от отбывания

назначенного наказания и систематически нарушают установленные ограничения, в соответствии с нормами законодательства наказание заменяется на более суровое.

В текущем году проведены 23 выездных судебных заседания. В результате 146 осужденным, систематически нарушающим ограничения и пренебрегающим установленными правилами, наказание, было ужесточено. Напротив, 409 лицам, соблюдающим ограничения, твердо вставшим на путь исправления, наказание заменено на более мягкое.

**Бекзод  
МИРЗАКУЛОВ,  
подполковник.  
Ферганская область.**

## ВЕСТИ ИЗ АНДИЖАНА



В целях исполнения соответствующего постановления главы государства от 3 января 2025 года сотрудники Управления профилактики правонарушений СОБ УВД области проводят профилактические мероприятия в махалле Бахт Андижанского района, находящейся в «красной» зоне.

Представителям «махаллинской семерки», ответственным руководителям и сотрудникам даны указания по формированию безопасной среды в махалле, изучению проблем населения и поиску решений для их устранения. Во время изучения сотрудники посещают дома жителей с целью выявления социально-бытовых проблем граждан.

Параллельно оказывается правовая, медицинская и психологическая помощь.



**В рамках комплексного оперативно-профилактического мероприятия по предотвращению распространения наркотических средств и психотропных веществ среди молодежи в Андижанском государственном медицинском институте прошел круглый стол на тему «Наркотики – угроза будущему молодежи».**



На нем специалисты дали подробную информацию о пагубном влиянии наркотиков на организм человека. Отмечено, что наркомания – это хроническое заболевание, характеризующееся патологической зависимостью от наркотических средств. Существуют стадии развития наркомании, включающие психологическую и физическую зависимость, а

также развитие психических расстройств.

Недостаток внимания, чувство одиночества, влияние плохой компании, неуверенность в себе, слабая воля могут способствовать употреблению наркотиков.

В ходе беседы молодежь также высказала свои мнения по обсужденной теме и получила ответы на интересующие вопросы.

**Соб. корр.**



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

## JINOYATCHILIKNI JILOVlashda INNOVATSION YONDASHUVLAR

**Odatda bozorlar va savdo majmualarida o'g'irlilik jinoyatlari sodir bo'lib turadi. Oramizda bozorga kirganida sumkasini, qimmatbaho buyumini yoki pulini o'g'irlatib qo'yganlar ham yo'q emas. Keyingi paytda bu kabi jinoyatlarning oldini olishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanimoqda. Albatta, bu o'zining ijobjiy samarasini beryapti.**



Farg'ona viloyati IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoni xodimlari shu turdag'i jinoyatlarning oldini olish va fuqarolarni hushyorlikka chaqirish maqsadida Xitoy politsiyasining sinovdan o'tgan bir tajribasini amalda qo'llab ko'rishdi. Ya'nisi, ular savdo majmularida aylanib, o'zining qimmatbaho buyumlari hamda telefonlariga beparvo bo'layotgan fuqarolarning yonidagi buyumlarini sezdirmasdan olib qo'yishdi. Keyin esa bu holatni payqamagan, loqaydlikka berilgan fuqarolarni hushyorlikka chaqirib, buyumlarini qaytarib berishdi. Shu jarayon tasvirga olinib, internet tarmoqlariga ham joylandi. Minglab yurtdoshlarimiz esa PPX xodimlarining bu yangi tajribasiga ijobjiy baho berdilar.

Kuni kecha Milliy gavardiya bilan hamkorlikda Farg'onada-gi markaziy dehqon bozoriga «Tashvishgoh uychalari» o'rnatib chiqildi. Mazkur qurilmani qanday ishlatalish borasida bozor xodimlari, sotuvchilar va fuqarolar ishtirokida tushunchalar berish uchun seminarlar ham tashkil qilindi.

– Bozorning qaysidir nuqtasi-da jinoyat yoki biror nizoli holat yuz berganda, kimdir «Tashvishgoh uychalari»ning maxsus tugmasini bossa, kifoya, – deydi Farg'ona viloyati Milliy gavardiya Qo'riqlash boshqarmasi Axborot guruhi rahbari, kapitan Zuhiddin Usmonov. – Shu zahotiyoy signal

Milliy gvardiya xodimlariga yetib boradi va tezkor guruh bir necha daqiqadayoq o'sha yerga yetib keladi. Natijada ko'ngilsiz holatlar o'z vaqtida bartaraf etiladi.



**Kapitan Zuhiddin Usmonovning qayd etishicha, «Tashvishgoh uychalari»ni dastlab ko'p qavatli uylarga o'rnatish boshlangan va sinov tariqasida bozorlarga ham o'rnatildi. Bu tajriba iliq kutib olingach, viloyatdagi barcha bozorlarda ommalashtirilmoqda. Massalan, shu kungacha 441 ta ko'p qavatli xonardonning kirish qismlariga, shuningdek, Farg'ona markaziy**

**dehqon bozorining 3 ta pavilyoniga o'rnatildi. Hozirda bu jarayon boshqa bozorlarda ham jadal tarzda davom etmoqda.**

– Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvar kuni e'lon qilingan «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori raqamlash tirish jarayonlari va innovatsion yondashuvlarga keng yo'l ochdi, – deydi viloyat IIB JXX Huquqbu zarliklar profilaktikasi boshqarmasi

Mutasaddining qayd etishicha, mahallalarning asosiy kirish-chiqish joylariga, bozor va xizmat ko'rsatish obyektlariga yuzni va avtoraqamlarni tanib oluvchi **850 ta** kamera o'rnatish rejalashtirilgan bo'lib, hozirda **100** ga yaqin ana shunday kameralar o'rnatib bo'lindi.

**Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining kirish-chiqish joylariga PTZ-kameralarini o'rnatishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Rejaga ko'ra, 420 ta ana shunday kamera o'rnatish ko'zda tutilgan bo'lsa, qisqa muddatda 50 dan ziyod maktablardagi ishlar bajarildi.**

Yana bir e'tiborli misol: qaror asosida viloyatdagi 6 ta ichki ishlar bo'linmasi tugatilib, o'rniغا 20 ta zamonaliv qurilmalar bilan jihozlangan huquq-tartibot maskani tashkil etiladi. Ushbu maskanlar orqali 100 ta kriminogen vaziyat og'ir mahallani qamrab olish va jinoyatchilikni jilovlashda yangicha yondashuvlar asosida ish tashkil qilish rejalashtirilgan. Hozirda rejalashtirilgan 20 ta huquq-tartibot maskanining 9 tasi uchun yangi bino qurilmoqda. 11 ta maskan uchun mayjud binolar qayta rekonstruksiya qilinyapti.

Bir so'z bilan aytganda, viloyatda jinoyatchilik va huquqbu zarliklarning barvaqt oldini olish, mahallalarda osoyishta muhitni yaratishda raqamli texnologiyalar va yangicha ish usullari amaliyatga keng joriy etilyapti. Bu esa o'zini to'la oqlamoqda. Fikrimizni sodir etilayotgan jinoyatlarning qariyb 30–40 foizi kuzatuv kameralari va zamonaliv qurilmalar yordamida fosh etilayotgani ham isbotlaydi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
**o'z muxbirimiz.**  
Farg'ona viloyati.



EHTIYOT BO'LING: FIRIBCAR!

## INTERNETDAGI NAYRANGBOZLAR

Bugun axborot texnologiyalari davri bo'lganligi sababli ijtimoiy tarmoqlar orqali do'stona muloqot qila olish imkoniyati bor. Lekin hamma ham do'st bo'la oladimi?

Yaqinda bir tanishimga no-tanish kimsa ijtimoiy tarmoq orqali o'zini Adelina Muhammad deb tanishtiribdi. So'zlariga qaraganda, u 61 yoshda bo'lib,

Londonda yasharkan.

Yangi do'st 2016-yil 16-av-gust kuni erini yo'qotibdi, o'zi ham uzoq vaqtidan beri saraton kasalligi bilan kurashib kelayotgan ekan. Shifokorlar unga yana bir necha oy umri qolganini aytilishibdi.

«Sog'lig'im yomonligi tufayli farzand ko'rmasidim. Asli Indoneziyanadanman. Ona yurtimga

beva-bechoralar, kambag'allar uchun ikki million dollar yubordim. Qolgan ikki million dollarni sizga yuboramani. Marhum erimning ko'rsatmasi bo'yicha yurtingizdag'i kambag'allarga, yetimlarga va bevalarga tarqating. Ularga dini, irqi, millatini kamsitmagan holda munosabatda bo'ling», – debdi.

«Tekin luqma faqat qopqonda bo'ladi», – dedim. Ijtimoiy tarmoqda firibgarlar sodda odamlarning shaxsiy ma'lumotlarini bilib olgach, unga tegishli bo'lgan plastik karta yoki bank hisobvarag'idagi pul mablag'larini yechib olishayotganini aytib, tanishimni ogohlilikka chaqirdim.

U mening maslahatimga amal qiladimi yo yo'q, bilmayman...

**Go'zal JAFAROVA,  
o'z muxbirimiz**



### JINOYAT MUHOKAMASI

## EGIZAKLAR TAQDIRI

Viloyat hokimligida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy markazi Jizzax filialidan chaqaloq o'g'irlanishi bilan bog'liq jinoyat muhokamasi bo'lib o'tdi. Sektorlar rahbarlari, Sog'liqni saqlash boshqarmasi mutasaddilari, tibbiyot muassasalari bosh shifokorlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar mas'ullari ishtirotida o'tgan tadbir avvalida kasalxonada ro'y bergan qonunbuzarlik tafsilotlari bayon qilindi.



Ma'lum bo'lishicha, yoshi 25–30 larda bo'lgan, yuziga tibbiy niqob taqqan ayol shifokor ko'rigidan o'tkazishini aytib, Zafarobod tumanining «Yorqin» mahallasida istiqomat qiluvchi P.H.ning egizak farzandlaridan birini tibbiy muassasadan olib chiqib ketgan.

Shifoxonadagi kuzatuv kameralarining nosoz ekanligi bola o'g'risining iziga zudlik bilan tushish imkonini yo'qqa chiqargan. Shu bois ichki ishlar organlari xodimlarining mohirona harakati bilan 36 soat ichida chaqaloq topilib, onasiga qaytarildi. Mazkur jinoyat Sharof Rashidov tumanining «Madaniyat» mahallasida yashovchi M.A. tomonidan sodir etilgan bo'lib, guman qilinuvchi

Profilaktika inspektorlari esa viloyat bo'ylab farzand asrash istagida bo'lgan oilalar bo'yicha surishtiruv o'tkazishdi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining mohirona harakati bilan 36 soat ichida chaqaloq topilib, onasiga qaytarildi. Mazkur jinoyat Sharof Rashidov tumanining «Madaniyat» mahallasida yashovchi M.A. tomonidan sodir etilgan bo'lib, guman qilinuvchi

bu ishi uchun bola asrab olish niyatida bo'lgan qo'shniidan 2 million so'm va 200 AQSH dollari olgani ma'lum bo'ldi.

Yig'ilishda mazkur jinoyatning sabab va omillari tahlil qilinari ekan, tibbiy muassasalarga kuzatuv kameralari o'rnatish, yong'in xavfsizligi choralarini kuchaytirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish, bemorlarga nisbatan qonunbuzarliklar sodir etilishiga yo'lli qo'ymaslik, pullik xizmat ko'rsatish yo'lli bilan topilgan mablag'lardan to'g'ri foydalanish, korupsiya kabi masalalarga

e'tibor qaratildi. O'z navbatida, viloyat hokimligi ishchi guruhni tomonidan 20 ga yaqin tibbiy muassasalarda o'tkazilgan o'rganishlar natijalari haqida ma'lumot berilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari belgilandi.

**Alijon ABDUSATTOROV,  
o'z muxbirimiz.**  
Jizzax viloyati.

## SPORT XABARLARI

**FUTBOL.** Bangladesh poytaxti Dakka shahrida o'tkazilgan amputantlar futboli bo'yicha Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi bosh sovrinni qo'liga kiritdi.

O'zbekiston termasi ilk turda Indoneziyani 8:1, ikkinchi turda Nepalni 13:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Uchinchisi turda futbolchilarimiz mezbon Ban-



gladeshga qarshi maydonga chiqdi va 3:0 hisobida g'olib bo'ldi. Guruh bosqichining so'nggi turida Iroq ham taslim etildi: 3:0.

Hal qiluvchi final uchrashuvida esa hamyurtlarimiz Indoneziyani 6:0 hisobida mag'lub etib, Osiyo chempionligini qo'iga kiritdi.

\* \* \*

**FUTZAL.** Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida ayollar futzali bo'yicha Markaziy Osiyo futbol asotsiatsiyalari — CAFAning «CAFA Women's Futsal Championship – 2025» turniri o'tkazildi. Unda Eron, O'zbekiston, Tojikiston, Qирғиз Республикаси ва Turkmeniston ayollar futzal terma jamoalari o'zaro kuch sinashdi.



Mamlakatimiz terma jamoasi ushbu turnirda ikkinchi o'rinni egalladi. Musobaqaning oltin medallari Eronga nasib qilgan bo'lsa, qirg'izistonlik futzalchilar bronza medaliga ega chiqdi.

\* \* \*

**VELOSPORT.** Tailandda velosportning shosse yo'naliishi bo'yicha kattalar, yoshlar va para velosportchilar o'rtaida o'tkazilgan Osiyo chempionati yakunlandi.

Unda O'zbekiston terma jamoasi 3 ta oltin va 1 ta bronza, jami 4 ta medalni qo'iga kiritib, umumjamoa hisobida ikkinchi o'rindan joy oldi.



\* \* \*

**QILICHBOZLIK.** Qozog'istonning Almati shahrida qilichbozlikning sablyo yo'naliishi bo'yicha yoshlar o'rtaida o'tkazilgan jahon kubogi bosqichida O'zbekiston yoshlar terma jamoasi a'zolari 2 tadan oltin va kumush, shuningdek, 1 ta bronza medaliga sazovor bo'ldi.

## HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

## IIV QOROVUL QO'SHINLARIDA

JAVOBGARLIK DAN  
QUTULAMAN DEB...

Joriy yil yanvar oyining o'n oltinchi kuni. Qarshi tumani IIB Jinoyat qidiruv xizmati xodimlari tomonidan «Mustaqillik» mahallasida yashovchi fuqaro K.J.ning uyida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida ma'lum miqdordagi giyohvandlik moddasi topildi.



Holatga oydinlik kiritish maqsadida gumanlanuvchi bilan JQB tezkor vakili, katta leytenant Mirkomil Muratov dastlabki surishtiruv ishlarni olib borish vaqtida fuqaro K.J. katta leytenantga ishni uning foydasiga hal qilib bersa, mo'maygina pul berishini bildirdi...

IIV SHXBB Qashqadaryo viloyati bo'yicha boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro K.J. tezkor vakilga uning xizmat xonasida 400 AQSH dollarini pora tariqasida bergen vaqtida ushlandi.

Qilmish – qidirmish deb bejiz aytishmagan. Jinoiy qilmishi uchun javobgarlikdan pora evaziga qutulish taklifi gumanlanuvchini yana bir qonunbuzarlik sari yetakladi. Endi u bu qilmishi uchun ham qonun oldida javob berishiga to'g'ri keladi.

Sodiq RAHIMOV,  
o'z muxbirimiz.

*Qashqadaryo viloyati.*

## ONA TILIM – JON-U DILIM

SAHRO KEMASI  
yoxud ommalashgan tasviriy ifodalar

Har bir tilda mutaxassislar tasviriy ifoda, parafraza deb ataydigan iboralar qatlami borki, ular yordamida fikrimiz obrazli va ta'sirchan ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida oq oltin degan ibora bor va u bizga paxtani oltinga o'xshatib tushuntirib beradi. Shu asnoda ushbu tasviriy ifoda paxtaning ikkinchi nomi bo'lib qolgan.

Tasviriy ifodalarni bilish yoshlар uchun ham, kattalar uchun ham birday foydali. Nutqda ulardan to'g'ri, o'rinni va jo'yali foydalinish orqali fikr ta'sirchan ifodalanadi.

Quyida mashhur tasviriy ifodalarning ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz.

**adab peshvosi** – Mahmud az-Zamaxshariy  
**asr vabosi** – giyohvandlik



**baxt qushi** – humo  
**dala malikasi** – makkajo'xori  
**dunyo tomi** – Pomir  
**hayotimiz qomusi** – Konstitutsiya  
**kumush tola** – pilla  
**kunchiqar yurt** – Yaponiya  
**ko'zning oq-u qorasি** – farzand



**non shahri** – Toshkent  
**palaxmon toshi** – qiz bola  
**po'lat qush** – samolyot  
**sahro kemasi** – tuyu  
**sehrli diyor** – Amerika  
**tilsiz yov** – olov  
**virtual olam** – internet  
**yashil boylik** – o'rmon  
**zangori olov** – tabiiy gaz  
**Sharqning oltin darvozasi** – Toshkent  
**Sharq Rimi** – Samarqand

## FARZANDLARIGA NAMUNA

1984-yil Samarqand viloyatining Ishtixon tumanda yashovchi Ermuhammad aka va Noroy opa oilasida ikkinchi o'g'il farzand dunyoga keldi. Ota-onha kamtarona turmush sharoitida yashasa-da, kun kelib farzandlari yetuk salohiyatlari insonlar, ular faxrlanadigan kasb egalari bo'lishini juda xohlashardi.

– Oilada to'rt o'g'il va uch qiz voyaga yetdik. Rahmatli otam bizga qo'sidan kelganicha zarur sharoitlarni qilib berdi, qizi-qishlarimizni qo'llab-quvvatladi. Bunga javoban biz, albatta, yaxshi o'qib yurtimizga munosib kadrlar bo'lib yetishishimiz shart edi. Hozir ukam, mayor Aktam Samanov ham huquq-tartibot idorasida faoliyat yurityapti, – deydi lavhamiz qahramoni.

Bahrom bolaligidan tirishqoq, bilimga chanqoq edi. Kitob mutolaasini kanda qilmasdi. Shu bilan birga, sportning futbol, suzish va shaxmat turlariga nihoyatda ishtyoqmand o'sdi. 2001–2005-yillarda Toshkent olyi harbiy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtini, 2023-yilda Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasini tamomladi.

Dastlabki bir necha yillik xizmat faoliyati huquq-tartibot idoralarida o'tgan qahramonimiz 2018-yildan buyon ichki

ishlar organlari safida. U IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinchalarida turli lavozimlarda xizmat qilgan. Hozirda IIV Qorovul qo'shinchalariga qarashli 7534-harbiy qism komandirining birinchi o'rinnbosari – shtab boshlig'i lavozimida xizmat qilayotgan podpolkovnik Bahrom Samanov tom ma'noda yurt posboni degan sharafga erishdi.

Bahrom Samanov baxtli oila sohibi. U turmush o'rtog'i, kasbi bo'yicha tibbiyot sohasi vakilasi Feruza Jamg'uрова bilan birga 4 nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Ota-onasidan ibrat olayotgan farzandlar ham allaqachon ilk natijalarini ko'rsata boshlashgan. Jumladan, oilaning to'ng'ich farzandi Bahriiddinjon

«Tashkent International house» akademik litseyida a'lo baholarga tahsil olayotgan bo'lsa, ikkinchi farzandi Maftunaxon poytaxtimizning Shayxontohur tumanida joylashgan Prezident maktabi filiali o'quvchisi.

Ishonamizki, tinch, osuda va farovon hayotni ta'minlash yo'lida namunalni xizmat qilayotgan podpolkovnik Bahrom Samanovning farzandlari ham otasi kabi yurtga sadoqatli, barkamol insonlar bo'lib yetishadi.

Abror POYONOV,  
o'z muxbirimiz.



## XIZMATDAN TASHQARIDA

## CHANQOVUZ SEHRI



Ichki ishlar organlarida xizmat qilish bilan birga ko'ngli san'atga oshufta bo'lgan iste'dodli xodimlar talaygina. IIV huzuridagi JIED Birinchi mintaqaviy hududi 14-son JIEK davolash-profilaktik yordam ko'rsatish bo'limi vrach-narkolog, kapitan Sarbinaz Uzakova ana shundaylardan biri.

Sarbinaz 2018-yildan buyon sohada faoliyat ko'rsatib keladi. U bo'sh vaqtlarida dutor chaladi, qo'shiq kuylaydi. Ayniqsa, chanqovuz chalganida, hamma sel bo'lib tinglaydi.

– Onam chanqovuzni maromiga yetkazib chalardilar, – deydi Sarbinaz. – Biz chanqovuz chalishni ulardan o'rganganmiz. Onam darajasida ijro eta olmasak-da, turli oilaviy tadbirlar, bayramlarda chalib turamiz. Chanqovuz chalsam, otam bilan so'zlash-

gandy, onam bilan dardlashgandek bo'lamon.

Sarbinazga hamkasblari havas qilishadi. U tizimda xizmat qilayotgan xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan bir qancha ko'rik-tanlovlarda ishtiroy etib, faxrli o'rinnlarni qo'liga kiritgan. Lavhamiz qahramoni bir o'g'il, bir qizning sevimli onajonisi ham.

– Farzandlarim el koriga yaraydigan, Vatani va xalqi uchun yonib yashaydigan insonlar bo'lib yashashini istayman, – deydi u. – Bu yo'lda avvalo, o'zim ularga ibrat, o'rnak bo'lishga intilaman.

Lavhamiz qahramonining shaxdam qadamlari orzulariga esh bo'lsin, deymiz.

Adolat FAYZIYEVA,  
o'z muxbirimiz.

*Toshkent viloyati.*

## HASSA «SEHRI»

Er-xotin baxtsiz hodisa tufayli o'g'li nogiron bo'lib qolganidan chuqur qayg'uga botdi. Bolaning oyoqlari kundan-kun zaiflashib, o'ziga itoat etmasdi. Ona o'g'lining yana yurib ketishiga umid qilib, har kuni duo qilardi.

Bir safar ularning xonadoniga



ancha keksayib qolgan bir o'tkinchi kelib, tunab qolish uchun joy so'radi. Xonadon sohibi uni uyg'a taklif qilib, rafiqasiga dasturxon tuzashni buyurdi.

— O'g'lingizga nima bo'lgan? — so'radi qariya suhbat orasida.

— Yura olmaydi, oyoqlari kuchli shamollash oqibatida harakatsiz bo'lib qolgan, — ma'yusgina javob qaytardi ota. — Bor-budimizni shifokorlarga sarfladik, bormagan joyimiz qolmadi, lekin hammasi behuda ketdi. Dilbandimizning yurib

ketishiga umid bildirib, duo qilishdan boshqa ilojimiz qolmadni.

Ertasi kuni mehmon bolaning boshini silab, unga murojaat qildi.

— Harakatsiz umid — mevasiz daraxt demak. Sen, yurib ketishing-ga o'zing ishonasanmi?

— Ishonmayman! Axir, o'rnimdan ham tura olmayapman-ku!

— Bunga o'zing ishonishing kerak. Chunki ishonch hatto tog'ni ham o'rnidan siljitchga qodir. Bilasani, omading bor ekan, senga bir sirmi aytaman — menda sehrli hassa bor. Uning yordamida yurib ketishing mumkin. Ishonmasang, qani, sinab ko'r, — dedi mo'ysafid.

Bola mehmon uzatgan hassaga suyanib, bir amallab o'rnidan turdi, bir qadam bosdi, keyin ikkinchisini... Ota-onaning quvonchdan ko'zları porladi. Ular o'zida yo'q shod edi. Ikkovlon qariyani yana bir necha kun mehmon bo'lishga ko'ndirdi. Ertasi kuni bola qo'llida hassani tutgancha, uy ichida ishonch bilan asta-sekin qadam tashlay boshladi.

Kunlar o'tib, mehmon ketish uchun izn so'radi. Bundan xavotirga tushgan ona ko'zida qo'rquv aralash uning hassasiga qarab qo'ydi. Buni sezgan keksa kishi tabassum qilib, shunday dedi:

— Xavotirga o'ren yo'q, qizim. Mening hassam sehrli emas, oddiy yog'ochdan yasalgan. Ista sangiz, uni sizga tashlab ketaman. Aslida o'g'lingizni oyoqqa turg'azgan uning umidi va ishonchi edi. Chunki shu ikkisi bir bo'lsa, mo'jizalar sodir bo'ladi!



## HAYOT – DENGIZ SOHILI KABI...

Qadimda bir ulkan kutubxonaga o't ketib, undan faqat bitta qo'lyozma omon qolgan ekan. U uzoq yillar davomida kitob do'konining eng chetki qismida turar, unga hech kim e'tibor qaratmasdi.

Kunlarning birida do'kon egasi almashibdi. U kitob-u qo'lyozmalar, o'rog'liq manbalarni bir chekkadan saralab ajratib, keraksizini tashlab yuborishga kirishibdi. Shu tariqa, eski qo'lyozma ham ko'chaga uloqtirilib, tasodifiy o'tkinchi — kambag'al bir yigitning qo'liga tushib qolibdi. Yigit isinish uchun qog'ozni gulxan yoqishda ishlatmoqchi bo'libdi, lekin qiziqlishi ustun kelib, nimalar bitilganini bilish maqsadida unga ko'z yu-gurtirib chiqibdi.

Qo'lyozmada quyidagi so'zlar qayd etilgandi: «Kimki dengiz sohilidan issiq toshni topsa, umrida nimaiki orzu qilgan bo'lsa, albatta, yetishadi».

Yigit dengiz tomon yo'l olibdi. U qirg'oqdagi har bir toshni birin-ketin qo'liga ola boshlabdi, lekin ularning bari muzdek bo'lgani uchun dengizga uloqtiraveribdi. Shu tariqa kunlar, haftalar, oylar, yillar o'tibdi...

Bir kuni faqir yigitning qo'liga qaynoq haroratlari tosh ilinibdi... U toshni ko'taribdi va... odatga ko'ra dengiz tomon irg'itibdi.

Hayotimiz — dengiz sohili kabi, biz unda har kuni o'z baxtimizni izlash bilan ovoramiz. Biroq ko'pincha qidirgan narsamizni topib, unga bee'tibor o'tib ketamiz, shunchaki izlashga ko'nikib qolganimiz uchun.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



Ona bedavo dardga yo'liqdi. Davoning narxi baland edi...

Onaning besh farzandi bor edi. Ikki o'g'il va uch qiz. Ular uyi, joyli bo'lib, bir-biriga suyanib yashashardi. Chunki ularning ham farzandlari bo'lib, ro'zg'orlarini amallab tebratishardi. Otalari ikki yil burun qazo qilgan edi...

Farzandlar o'zaro maslahatlashib qo'llaridan kelgancha onalariga madad bo'lish, biror-bir yordam berish uchun yig'ildilar. Ona ularning holahvolini ko'rib, dardini doston qilmadi. «Do'xtirlar tashxis qo'yishda yanglishibdi, — dedi. So'ng sekin shivirladi: — Men soppa-sog'man, jonim bolalarim, hech narsani o'ylamanglar, tashvish chekmanglar».

Bolalar asta boshlarini ko'tarib, bir-birlariga «xayriyat» deganday yengil nafas oldilar. Ona ulug', bolalar esa hali bola edi.

Ona, sho'rlik va mehribon ona bir haftadan so'ng vafot etdi...

Ashurali JO'RAYEV.

## JALOLIDDIN RUMIY HIKMATLARIDAN



Sevgidan achchiq shiringa aylanur. Sevgidan mislar oltinga aylanur. Sevgidan loyqa cho'kindi suvlar tiniq, sof holga kelur. Sevgidan dardlar, shifo topur. Sevgidan o'liklar tirilur, podshohlar qul bo'lur. Bu sevgi ilm-ma'rifikatning natijasidir. Bo'lar-bo'imas narsalarga g'arq bo'lgan inson qanday qilib bunday taxtga o'tirishi mumkin? Nuqsonli ilm qanday qilib haqiqiy sevgini yaratishi mumkin? Ha, sevgini yarata olar, u ham jonsiz narsalar sevgisidir. Nuqsonli ilm sohibi jonsiz narsada istaganining rangini ko'rganida, hushtak chalinsa ham sevgilisining ovozini eshitgandek bo'ladi.

- Bir insonning qandayligini bilmoqchi bo'lsang, u bilan birga o'tirib-turgan do'stlariga qara.
- O'rinsiz nasihat kishini yaralaydi.
- Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak; diqqat, intizom va harakat.
- Dardli odamning beqarorliklar va tumanlarga to'la bir uyi bor. Dardini eshitsang, uyiga bir deraza ochgan bo'lasan.
- Qo'shnilariga tuzoq qurish, arslonlarga yarashmaydi.
- Tiliga hokim bo'lmagan insondan — do'st, ko'ziga hokim bo'lmagan insondan — yor bo'imas.
- Ilmga yetgan oyoq qanotga aylanur.
- Inson kulishi ila tarbiyasini, kulgan narsasi ila saviyasini ko'rsatadi.
- Ko'chaning daydi itiga xoh oltindan, xoh yungdan tasma taq, baribir ko'cha itiligicha qolaveradi.
- Don yerga ko'miladi, uning yerga ko'milishi bog'-u rog'ning ko'karishiga sabab bo'ladi.
- Aqling tuyachiga o'xshaydi. Sen tuyasan. Aqling seni rom qiladi, istar-istamas xohlagan joyiga tortib olib boradi.

## САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

# СТРЕССДАН ЭХТИЁТ БҮЛИНГ

## ёхуд депрессия сирлари

Шиддатли ҳаётнинг тезкорлиги ва босими инсон руҳий ҳолатини кўплаб синовларга дучор қилади. Стресс ва депрессия шулар жумласидан бўлиб, улар нафақат инсон кайфиятини туширади, балки жисмоний ва руҳий саломатлигига ҳам жиддий зарар етказиши мумкин.

Бугунги кунда стресс ва депрессия катта ёшдагилар орасида ҳам, ёшларда ҳам тез-тез учраб турибди. Стресс ишдаги ортиқча босим, оиласи мумкин ёки молиявий қийинчиликлар сабабли юзага келиши мумкин бўлса, депрессия узоқ муддат давом этадиган руҳий ҳолат сифатида инсон ҳаётининг барча жабҳаларига салбий

таъсир кўрсатади. Бинобарин, иш фаолиятини эндиғина бошлаган ёш ходимлар стресс ва депрессияни бошқариш ва улардан самарали тарзда кутулиш бўйича амалий маслаҳатлар, шунингдек, ўз саломатлиги ва руҳий фаровонлигини саклаш учун зарур бўлган билимларни олиши мақсадга мувофиқ.

Мутахассисларнинг стресс ва депрессияни бошқариш бўйича асослантирилган тавсияларига кўра, жисмоний машқлар, медитация ва нафас олиш техникалари, материаллар ва усуслар орқали,



соғлом уйқу, ижтимоий алоқалар, яқин дўйстлар ва оила аъзолари билан мунтазам муроҷот қилиш натижасида мижозлар ўз ҳолатлари яхшиланганини таъкидлашади.

Қолаверса, мижозларнинг кўпчилиги жисмоний фаолликни оширганидан сўнг кайфияти кўтарилгани ва руҳий ҳолати яхшиланганини қайд этишади. Айниқса, юриш, югуриш каби машқлар стрессни камайтириш учун энг самарали усул эканлиги аниқланган.

**Зебинисо АБДУҒАНИЕВА,**  
**Сирдарё вилояти ИИБ**  
**психологик таъминлаш**  
**гурӯҳи катта психологи,**  
**лейтенант.**

## ИММУНИТЕТ УЧУН МУҲИМ

Организмнинг турли касалликларга қарши курашувчи қалқони – иммунитет мустаҳкам бўлишида муҳим ўрин эгаллайдиган омиллардан бири рух (цинк) моддаси ҳисобланади. Иммун тизими энг кўп айнан шу минералга муҳтож. Чунки касаллик зўрайишининг олдини олиш учун вируснинг ривожланиш жараёнини ўз вақтида тўхтатиши зарур ва бу вазифа айнан рухга юкланди.

Рух моддаси танамизда вирус ва бактерияларни пайқаб, организмнинг ҳужумга учрагани ҳақида хабар етказувчи лимфоцитларни нобуд бўлишдан асрайди. Углеводлар, ёѓлар, оқсиллар ва нуклеин кислоталар синтези ва парчаланиши ҳам бевосита унга боғлиқ. Рух кўплаб модда алмашнуви жараёнларида иштирок этиб, танадаги барча ҳужайраларнинг нормал ишлашини таъминлайди.



дан чиқишига сабаб бўлади. Ушбу модда етишмаслиги, аввало, сезиш қобилиялари – кўриш, хид ва таъм билиш хусусиятлари издан чиқишига олиб келади. Оқибатда иштаҳа йўқолади, овқат ҳазм бўлиши қийинлашади, шунингдек, ҳорғинлик, чарчоқ, тушкун кайфият, суюклар мўртлашиши, тирноқларда оқ дод пайдо бўлиши, соч тўклиши каби ҳолатлар кузатилади.

Ушбу минерал организмга, асосан озиқ-овқат маҳсулотлари орқали қабул қилинади. Шу сабабдан таркибида рух моддаси кўп бўлган, жумладан, майиз, туршак, ёнғоқ, кепакли нон, нўхат, бодом ва ўрик данаги, тут шинниси, картошка, помидор, гўшт ва сут маҳсулотларини кундалик таомномага киритиш айни муддао.

## МИНГ ДАРДГА ДАВО



Қадимдан ҳалқ орасида кенг қўлланиб келинган ва инсон саломатлиги учун фойдали маҳсулот сифатида тан олинган думба ёғи таркибида А, В, Д, Е, К витаминалари, калий, магний, мис, рух, фосфор ва бошқа минераллар бор. Кўпгина фойдали хусусиятларга эга бўлган бу кўринишдаги ёғ кўзлар учун жуда фойдали. У мия фаолиятини яхшилайди, қонда қанд миқдорини меъёрга солади, қон айланишини рағбатлантиради, иммунитетни оширади, қариш жараёнини секинлаштиради ва ҳатто радиациядан ҳимоя қилади.

Ушбу маҳсулот модда алмашнуви, асаб ва юрак-қон томир тизимлари, тери ҳолати учун зарур бўлган фойдали ёғ кислоталарига бой. Бошқа ёғларга қараганда холестерин миқдори кам бўлган думба ёғи тез ҳазм бўлади ва ўзлаштирилади. Унинг истеъмоли бўғим касалликларининг олдини олишга, респиратор касалликларини даволашга ёрдам беради. Танамизни заарли вирус ва бактериялардан ҳимоя қилади, асаб тизимиға ижобий таъсир кўрсатади, соч ва тирноқлар ҳолатини яхшилайди, юқумли касалликлардан кейин организмнинг тикланиши ва мустаҳкамланишига ҳисса қўшади.

Бироқ ижобий натижаларни фақат эскирмаган ва сифатли думба ёғи бера олишини унумаслик керак. Ҳар қандай маҳсулот каби, унинг ҳам истеъмолини меъёрдан оширмаган маъқул. Акс ҳолда, танамизга фойда ўрнига заар келтириб қўйишимиз мумкин. Сурункали касалликлар билан оғриган, ўт қопи, жигари, ошқозонида муаммоси бўлган, шунингдек, ортиқча тана вазнига эга кишилар қўй ёғини шифокор ва мутахассислар билан маслаҳатлашган ҳолда истеъмол қилгани маъқул.

**Гулчеҳра АЗИМОВА**  
**тайёлради.**

В преддверии 95-летия нашей газеты



**Коллеги, единомышленники**

Члены творческого коллектива газеты «На посту» – Елена Кузнецова, Любовь Мухамеджанова, Александр Воргудяев, Ирина Сайфутдинова.

Фото из архива.

### Это интересно

## ИСТОРИЯ БРЮК ГАЛИФЕ

**Брюки галифе, получившие широкое распространение в конце XIX – первой половине XX века, стали неотъемлемой частью военной формы офицеров различных армий. Их отличительной особенностью была необычная форма: расширенные в области паха и бедер, но сильно зауженные от колен и ниже.**

Существует легенда о происхождении галифе, связанная с французским генералом от кавалерии Гастоном Александром Огюстом де Галифе. Согласно этой версии, во время франко-пруссской войны 1870-1871 годов генерал получил тяжелое ранение в бедро, что привело к его искривлению. Чтобы скрытьувечье, которое особенно неприглядно выглядело в обтягивающих лосинах, распространенных в то время в европейской кавалерии, де Галифе якобы и придумал брюки с расширенной верхней частью.

Другая версия легенды утверждает, что генерал просто страдал от комплексов из-за кривых ног, что было характерно для многих кавалеристов. Однако обе эти истории являются не более чем выдумкой. Реальная причина появления галифе гораздо прозаичнее, хотя и действительно связана с кавалерией.

К концу XIX века в армейской моде начал происходить сдвиг от чисто эстетических соображений



к более практичным. На первый план вышли такие качества, как удобство, немаркость и легкость надевания.

Гастон де Галифе, командовавший Вторым мусульманским кавалерийским полком французской армии с 1857 по 1862 год,

обратил внимание на одежду своих подчиненных – шаровары, характерные для восточной культуры.

Ему пришла в голову идея объединить преимущества лосин и шаровар. Новая модель брюк отличалась свободным краем в верхней части, что обеспечивало легкость надевания и отсутствие дискомфорта. Нижняя часть, напротив, была зауженной, позволяя быстро обуваться даже в экстренных ситуациях.

Помимо функциональных преимуществ, галифе обладали важным эстетическим достоинством – способностью скрывать недостатки фигуры. В отличие от узких обтягивающих брюк, требовавших идеального телосложения, галифе позволяли выглядеть достойно практически любому военнослужащему.

Гастон де Галифе впервые испытал новый фасон брюк на своих подчиненных во время экспедиции в Мексику в 1860-1865 годах. Эксперимент оказался успешным, и модель получила одобрение.

Соб. корр.

## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(24-февраль – 2-март)



**Қўй.** Иш жойингизда кутилмаган ўзгаришлар юз бериши мумкин. Бу ҳафта қадрданлар меҳр-муҳаббатидан тўлиқ баҳраманд бўласиз. Ушбу ғамхўрлик иш фаолиятида зиммангизга юклатилган мураккаб вазифаларнинг уддасидан чиқишга ёрдам беради. Молиявий жиҳатдан ҳам муваффақият сиз томонда бўлади.



**Бузоқ.** Ушбу ҳафтада саломатликка жиддий эътибор қаратиб, ўзингизга бироз дам беринг ва келгуси узоқ муддат учун куч-қувват йиғинг – бу сизга ҳозир жуда зарур. Оила аъзоларингизга ҳаракат қилиб, муғомбир танишлар билан мулоқотни узинг. Душанба куни баъзи ҳамкаслар билан муносабатлар изига тушади.



**Эгизаклар.** Сизни қизиқарли ва ёдда қолувчи воқеаларга бой ҳафта кутмоқда. Аммо шубҳали ва қалтис молиявий ишларга аралаш-маслика ҳаракат қилиб, муғомбир танишлар билан мулоқотни узинг. Душанба куни баъзи ҳамкаслар билан муносабатлар изига тушади.



**Қисқичбақа.** Жамоавий фаолиятда доим иштирок этинг, сиздаги фаоллик ва шижоат кўпчиликка маъқул келади. Осоишталик ва фароғат уйғуналигини бузмаслик учун ҳар қандай вазиятда ўзингизни тутиб, оғиррок бўлишга ҳаракат қилинг. Бу давр янги режалар тузиш ва уларни амалга ошириш йўлларини излаш учун жуда қулай.



**Арслон.** Ҳафта давомида бутун куч ва шижоатни тўплаб, ўзингизга бўлган ишонч даражасини юқори ушланг. Сешанба янги шартнома ва битимлар тузиш учун омадли кун – сарфланган маблағ катта фойда келтиради. Лекин нотаниш одамлар билан ўз режаларингизни ўртоқлашманг.



**Паризод.** Сешанба энг омадли кун ҳисобланади. Гап фойдали битимлар ва истиқболли шартномалар ҳақида кетмоқда. Ўз истеъодда ва қобилиятингизни кўрсатишдан чўчиманг. Жума куни севимли иш билан шуғулланиш имкониятига эга бўласиз.



**Тарози.** Ҳафта бошида дўйстларга сизнинг ёрдамингиз зарур бўлиб қолиши мумкин. Сешанбада вақтингизни майший муаммоларни ҳал этишга багишланг. Шу кунларда катта маблағ келиб тушиши мумкин, лекин уни бехуда сарфламанг.



**Чаён.** Бу ҳафта куч-ғайратингиз етаридан ортиқ бўлади. Лекин атрофдаги нафақат рақиблар, балки ҳамкаслар ва дўйстлардан ҳам эҳтиёт бўлинг. Чоршанба учун режалаштирилган хизмат сафарлари омадли кечади. Дам олиш кунлари узоқдан қариндош ва яқинларингиз ташрифи кутилмоқда.



**Ўқотар.** Ҳафтанинг иккинчи ярмида режаларни амалга ошириш ҳақида ййланг. Ҳафта сўнгидаги иш муносабатларини мустаҳкамлаш учун қулай бўлиб, ўз режаларингиз борасида эътиборли танишлар билан маслаҳат қилишингиз мумкин.



**Тоғ эчкиси.** Бу ҳафта молиявий масалада бироз тежамкор бўлишга ҳаракат қилинг, пулларингизни бехуда сарфламанг. Чоршанба куни янги танишлар ортирилиши, фойдали алоқалар ўрнатилиши кутилмоқда. Оиласи муаммоларни ҳал этиш ҳаракатини ҳафтанинг иккинчи ярмига қолдирганингиз маъқул.



**Қовға.** Сизни ҳодисаларга бой ҳафта кутмоқда. Душанба куни фойдали нарсага пул тикиш ҳақида ўйлаб кўринг, эҳтимол, бу билан молиявий ҳолатингизни яхшилаб оласиз. Ҳафта бошида иш жойингизда текширув ташкил этилиши мумкин.



**Балиқ.** Бу даврда молиявий муаммоларни имкон қадар ҳал қилишга ҳаракат қилинг. Барча ғояларингиз ҳаётга татбиқ этилади, асосийси, таваккалчиликни талаб қиладиган ишларга аралашманг. Дам олиш кунларида режалаштирилган барча тадбирлар кўнгилдагидек ўтади.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

БИР ТУМАН ТАРИХИ

# ПАРКЕНТ – ПАРИЛАР МАСКАНИ...МИ?

**Виқорли тоғлари, бетакрор табиати ҳамда сўлим гўшалари билан машҳур Паркент тумани юртимиздаги бой тарихга эга қадимий масканлардан бири саналади. У ердан топилган осори атиқалар ҳам бу ҳақиқатни тасдиқлайди.**



Мазкур ҳудуд 1926 йилнинг 29 сентябрь куни Тошкент уезди таркибида «Еттикент бўлиси» номи билан ташкил топган. 1938 йил 15 январда Тошкент вилояти тузилгач, Паркент тумани ана шу ном билан унинг таркибига киритилган.

Паркент номининг келиб чиқиши тўғрисида жуда кўплаб тахминлар мавжуд. Жўмладан, араб географларининг асарларида IX–XI асрларда Барскат шаклида тилга олинган. Шунингдек, Ёқут Ҳамавийнинг XII–XIII асрларга оид «Муъжам ул-булдон» луғатида қайд этилган Барскат шаҳрини Василий Бартольд ҳозирги Паркент бўлса керак, дея келтириб ўтган. Шундай қилиб, Паркент ҳақидаги энг қадимиий

манбалардан келиб чиқсан ҳолда, у «Барс» – «ТОФ Йўлбарси» номи билан боғлиқ деган тахмин қилинади. Шунингдек, ҳудудни буюк бобокалонимиз Захириддин Муҳаммад Бобур ўзининг «Бобурнома» асарида Фаркат номи билан тилга олган.

XVI асрнинг етук намояндадаридан бири Восифий ўз асарида Паркентга кўйидагича таъриф берган: «Фаркат қасабаси фоят хушҳаво ва дилкаш жойдирки, Боғи Эрам ундан хижолат тортиб, юзини беркитиб олган эди». Бундан ташқари, Ал-Истаҳрий ва Ал-Мақсадийларнинг



қўлёзмаларида ҳам Фаркат номи зикр этилган. Бу манбаларга асосланилса, Паркент номи «фар» – туркий фаровон сўзининг қисқартма шакли, «кат» эса сўғдча «шаҳар», қишлоқ, манзилгоҳ» деган маъноларни билди-

ради. Суюн Қораевнинг «Ўзбекистон вилоятлари топонимлари» китобида «XIX асрда Фаркат номи Паркент деб ёзила бошланган. Тарихий манбаларга асосланган ҳолда, Тошкент вилоятининг тоғли қисмидаги кўпгина жой номлари Фарғона водийсидан кўчиб келган аҳоли томонидан кўйилган» деган маълумотлар ҳам учрайди.

Ҳамидулла Ҳасановнинг «Географик номлар сири» ва «Ер тили» асарларида ёзилишича, Паркент номи «Паракент» сўзидан олинган бўлиб, ўрта асрларда Чирчик дарёси «Оби Паррак» деб юритилган ва бу дарёнинг бир ирмоғи туман ҳудудидан ўтганлиги боис, шу ном берилган. Маҳаллий халқнинг, асосан нуронийларнинг фикрича, «Паркент» сўзи икки хил маънени билдиради. Биринчisi, «Пар» – форс тилида «жуфт» деган маънени билдиради, «кент» эса «шаҳар», яъни «жуфт шаҳар» дегани. Бунинг сабаби, Паркент шаҳри ва туманидан уни иккiga ажратувчи Паркентсойнинг оқиб ўтганлигидир. Иккинчisi эса, афсоналарга кўра, бу маскан қадимда «Парикент» деб аталиб, «парилар, фаришталар маскані» деган маъноларни билдирган.

**Михли САФАРОВ,  
ӯз мухбиримиз.**

## MUASSIS:

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

**Bosh muharrir**  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

**Bosh muharrir**  
o'rınbosarlari  
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

**Navbatchilar**  
Kamol OLLOYOROV  
Radik TUMPAROV

**Mas'ul kotib**  
Erkin SATTOROV

**Sahifalovchilar**  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

**Fotomuxbirlar**  
Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

## TELEFONLAR:

71-231-33-88;

**Obuna masalalar bo'yicha:**  
71-231-38-74;  
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz  
**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va  
axborot agentligi tomonidan  
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam  
bilan ro'yhatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma №440.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
46005 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqtı – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.  
«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi.  
Korxonha manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>st</sup>-uy.